

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIV TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIV – METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

KONCHILIK ELETROMEXANIKASI

yo'nalishi

**“KONCHILIK MASHINALARINI ISHLATISHNING
ZAMONAVIY TENDENSIYALARI”**

modulidan

O' Q U V – U S L U B I Y M A J M U A

Toshkent – 2024

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: TDTU, “Konchilik elektromexanikasi” kafedrası mudiri,
PhD., dots. Annaqulov T.J.

Taqrizchi: TDTU, “Eletr energetikasi” fakulteti dekani
t.f.d., professor J.B. Toshov

O‘quv-uslubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2024 yil 31-yanvardagi 5-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, foydalanishga tavsiya etildi.

MUNDARIJA

| | | |
|------|--|----|
| I. | Ishchi dastur..... | 5 |
| II. | Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari | 11 |
| III. | Nazariy materiallar | 22 |
| IV. | Amaliy mashg‘ulot materiallari..... | 51 |
| V. | Keyslar banki | 68 |
| VI. | Glossariy | 73 |
| VII. | Adabiyotlar ro‘yxati | 74 |

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta‘lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta‘lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta‘lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta‘lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta‘lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta‘lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda xorijiy davlatlardagi yoyli dastakli, himoya gaz muhitida, flyus ostida, elektr-shlakli, elektron-nurli va lazerli payvandlashda keng tarqalgan texnologiyalari, ishlatiladigan jihozlari, uskunalari masalalarining nazariy va amaliy asoslarini bayon etilgan.

Bugungi kunda yoyli dastakli, himoya gaz muhitida, flyus ostida, elektr-shlakli, elektron-nurli va lazerli payvandlash jarayonlar qo‘llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar eritib payvandlashda keng tarqalgan texnologiyalari, ishlatiladigan jihozlari, uskunalari bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini amalda qo‘llanilishining nazariy va amaliy jihatlari deyarli o‘rganilmagan. Bu holatlar yoyli dastakli, himoya gaz muhitida, flyus ostida, gaz bilan, elektr-shlakli, elektron-nurli va lazerli payvandlash jarayonlarning

asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini konchilik mashinalarini ishlatishning zamonaviy tendensiyalari, ilmiy asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, loyihalarni tahlil qilish va qaror qabul qilish asoslari, konchilik mashinalarini ishlatishni optimal loyihalash, zamonaviy jihozlarini boshqarish, innovatsion texnologiyalar, ularda qo'llanadigan asbob uskunala hamda ularning samaradorligini oshirish ishlari mazmunini o'rganishga yo'naltirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- mamlakatimiz konchilik korxonalarida yuqori unumdorlikli konchilik mashinalar va komplekslarini qo'llashning zamonaviy ahvoli va istiqbollari o'rganish;
- konchilik ishlab chiqarishida ilmiy tadqiqot uchun boy raqobatbardosh texnologiyalarni tahlil qilish;
- zamonaviy konchilik mashinalari va komplekslarining turlari, ishlash prinsiplari va asosiy ko'rsatkichlarini aniqlashning tadqiqot yo'nalishlarini o'rganish;
- zamonaviy konchilik mashinalari va komplekslari yordamida foydali qazilmalarni qazib olishning ilg'or texnologiyalarini o'rganish;
- raqamli ishlab chiqarishda qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalarni tahlil qilish va ularni o'rganish;
- konchilik ishlab chiqarishda taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalarini va innovatsion yechimlarini rejalashtirish;
- mahsulot sifatini boshqarishda zamonaviy texnologiyalarni, tizimlarni va prinsiplarni o'rganish;
- konchilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviy mexanizatsiyalashtirish yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Konchilik mashinalarini ishlatishning zamonaviy tendensiyalari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- konchilik korxonalaridagi mashinalar va komplekslarning o'rni va ahamiyatini;
- yangi zamonaviy konchilik mashinalarini ishlatish, tanlash va ta'mirlash tizimlarini;
- mashina va mexanizmlarini kon sharoitiga qarab ajratish ko'rsatkichlarini;
- zamonaviy konchilik mashinalarining turlari, ularning ishlash nazariyasini;

- zamonaviy texnologiyalar asosida konchilik mashinalari va komplekslarini ishlatishni loyihalash **ko‘nikmalari**;

- muayyan kon-geologik sharoitlar uchun konchilik mashinalarini hisoblash;
- kon mashinalarini ishlatish uchun tanlash va hisoblashni amalga oshirish;
- kon mashinalarini zamonaviy turlarini ishlatilish;
- konchilik mashinalari va komplekslarining eksploatasion ko‘rsatgichlarini tahlil qilish;

- muayyan kon sharoiti uchun mashinalar turini tanlash va texnik-iqtisodiy asoslash **malakalariga ega bo‘lish**;

- har xil turdagi detallar tayyorlashning texnologik jarayonlarini ishlab chiqishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish;

- mamlakatimizda va jahonda zamonaviy konchilik mashinalarini ishlatish texnologiyalarining rivojlanish yo‘nalishlarini, strategiyasi masalalari va istiqbollari haqidagi zamonaviy **bilimlarni egallashi**;

- zamonaviy konchilik mashinalarini ishlab chiqarish jarayonlari uchun to‘g‘ri tanlash va kompleks loyihalash hamda ularni amaliyotga joriy etish **kompetensiyalarini**;

- Davlat ta‘lim standartlari, o‘quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish **kompetensiyalarni egallashi lozim**.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Konchilik mashinalarini ishlatishning zamonaviy tendensiyalari” moduli ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta‘limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma‘ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan.

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta‘lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Konchilik mashinalarini ishlatishning zamonaviy tendensiyalari” moduli o‘quv rejadagi quyidagi fanlar bilan bog‘liq: Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish texnologiyasi, Konchilik korxonalarini elektrlashtirishning zamonaviy yo‘nalishlari.

Modulning oliy ta‘limdagi o‘rni

Zamonaviy konchilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarining jadal rivojlanishi va yuqori talaablar konchilik mashinalarining konstruktiv tuzilishiga ham, ularni ishlatish masalalariga ham yangicha talablarni shakllantiradi. Bunday sharoitlarda ishlab chiqarishni jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish, mahsulot raqobatbardoshligini ta‘minlash uchun yuqori unumdorlik va aniqlikni ta‘minlaydigan texnologik jarayonlarni loyihalay oladigan va ulardan ishlab chiqarishda samarali foydalanishni yo‘lga quyishni ta‘minlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash oliy ta‘limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

| № | Modul tarkibi | Hammasi | Auditoriyadagi o‘quv yuklamasi | | | Mustakil ish |
|----------------|--|-----------|--------------------------------|-----------|-------------------|--------------|
| | | | Jami | Jumladan: | | |
| | | | | Nazariy | Amaliy mashg‘ulot | |
| 1. | <p>Konchilik mashinalarini ishlab chiqarishning jahon bozoridagi zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari</p> <p>Zamonaviy mexanik ekskavatorlarning asosiy ishlab chiqaruvchilari, ekskavatorlarning turlari, texnik tavsiflari, texnik ko‘rsatkichlari va ishlatilish ko‘lami. Jahonda ochiq kon ishlari uchun eng ko‘p talab qilinadigan mashinalarning xalqaro bozori holatini tahlil qilish, uni yanada rivojlantirishning ayrim tendensiyalarini aniqlash. Zamonaviy ekskavatorlarni ishlab chiqarish istiqbollari.</p> | 6 | 4 | 2 | 2 | 2 |
| 2. | <p>Qatlamli konlarni ochiq usulda qazib olishda zamonaviy mobil komplekslarni ishlatish istiqbollari</p> <p>Ekskavator, mobil maydalash qurilmasi, pogonali qayta yuklagich va konveyerlar tizimi birgalikda ishlatiladigan “qazib olish-maydalash-tashish” jarayonlarini bajaruvchi zamonaviy mashinalar turlari, ularning o‘zaro texnologik mosligini tahlil qilish. Kompleksdagi mashinalar turini tanlash. Mobil komplekslarni ishlatishning texnologik sxemalarini tadqiq qilish, unumdorligini hisoblashni matematik modellashtirish.</p> | 10 | 8 | 4 | 4 | 2 |
| 3. | <p>Konchilik korxonalarida ekskavator-avtomobil kompleksining unumdorligini oshirish tadqiqotlari</p> <p>Konchilik korxonalarida ishlatiladigan zamonaviy ekskavator-avtomobil komplekslari turlari, ularning kompleksda bir butun tizimda ishlashi. Ekskavator va samosval o‘rtasidagi jarayonlarni modellashtirish masalalari. Ekskavator va avtosamosvallarning unumdorligini oshirish bo‘yicha belgilanadigan chora-tadbirlar, hisoblash usullari. Unumdorlikni oshirishda e‘tiborga olinadigan texnik ko‘rsatkichlari. Zamonaviy avtotransport vositalarining ishini tashkil qilish, ularning smenalik, sutkalik ekspluatasion ko‘rsatkichlarini belgilash usullari.</p> | 8 | 6 | 2 | 4 | 2 |
| Hammasi | | 24 | 18 | 8 | 10 | 6 |

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: KONCHILIK MASHINALARINI ISHLAB CHIQRISHNING JAHON BOZORIDAGI ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (2 soat)

Zamonaviy mexanik ekskavatorlarning asosiy ishlab chiqaruvchilari, ekskavatorlarning turlari, texnik tavsiflari, texnik ko'rsatkichlari va ishlatilish ko'lemi. Jahonda ochiq kon ishlari uchun eng ko'p talab qilinadigan mashinalarning xalqaro bozori holatini tahlil qilish, uni yanada rivojlantirishning ayrim tendentsiyalarini aniqlash. Zamonaviy ekskavatorlarni ishlab chiqarish istiqbollari. Zamonaviy lahim o'tish komplekslari, yer osti qazib olish mashinalari turlari, ishlash prinsipi va ishlatilish ko'lemi. Zamonaviy yer osti mashinalarining asosiy uskunalari, asosiy ishchi ko'rsatkichlari hamda ishlab chiqarish istiqbollari.

2-MAVZU: QATLAMLI KONLARNI OCHIQ USULDA QAZIB OLISHDA ZAMONAVIY MOBIL KOMPLEKSLARNI QO'LLASHNING SAMARALI TEXNOLOGIK SXEMALARI (2 soat)

Ekskavator, mobil maydalash qurilmasi, pogonali qayta yuklagich va konveyerlar tizimi birgalikda ishlatiladigan "qazib olish-maydalash-tashish" jarayonlarini bajaruvchi zamonaviy mashinalar turlari, ularning o'zaro texnologik mosligini tahlil qilish. Kompleksdagi mashinalar turini tanlash. Mobil komplekslarni ishlatishning texnologik sxemalarini tadqiq qilish, unumdorligini hisoblashni matematik modellashtirish. Qatlamli konlarni ochiq usulda qazib olishda mobil komplekslarni ishlatish istiqbollari.

3-MAVZU: MOBIL KOMPLEKSLARNI ISHLATISHDA ISH FRONTINING OPTIMAL UZUNLIGINI HISOBLASHNING ZAMONAVIY NAZARIYASI (2 soat)

Mobil maydalash qurilmalari ishlatiladigan komplekslarni qo'llashda zaboy konveyeri uzunligini belgilashning nazariy asoslari, texnik-iqtisodiy jihatlari. Ekskavator, mobil maydalash qurilmasi, qayta yuklagich va zaboy konveyerining ishlatish harajatlarini hisobga olgan holda optimal ish fronti uzunligini hisoblashning yangi matematik usulini tadqiq qilish.

4-MAVZU: KONCHILIK KORXONALARIDA EKSKAVATOR-AVTOMOBIL KOMPLEKSINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH TADQIQOTLARI (2 soat)

Konchilik korxonalarida ishlatiladigan zamonaviy ekskavator-avtomobil komplekslari turlari, ularning kompleksda bir butun tizimda ishlashi. Ekskavator va samosval o'rtasidagi jarayonlarni modellashtirish masalalari. Ekskavator va avtosamosvallarning unumdorligini oshirish bo'yicha belgilanadigan chora-tadbirlar, hisoblash usullari. Unumdorlikni oshirishda e'tiborga olinadigan texnik ko'rsatkichlari. Zamonaviy avtotransport vositalarining ishini tashkil qilish, ularning smenalik, sutkalik ekspluatasion ko'rsatkichlarini belgilash usullari. Ekskavator-avtotransport ishini tashkil qilish va boshqarish.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: MOBIL KOMPLEKSLAR ISHLATILGANDA EKSKAVATOR ISH ZABOYINING OPTIMAL KENGLIGINI ANIQLASHNI MATEMATIK MODELLASHTIRISH (2 soat)

Bir cho‘michli mexanik ekskavatorlarning nazariy, texnik va ekspluatasion unumdorliklarini hisoblashda aniq kon-texnik va kon-geologik sharoitlarning hamda texnologik mashinalarning ta‘sirini o‘rganish. Ekskavatorlar ish zaboylarining optimall o‘lchamlarini hisoblashni matematik modellashtirish.

2-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: ANGREN KO‘MIR KONI SHAROITIDA EKSKAVATOR ISH ZABOYINING OPTIMALL KENGLIGINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH (2 soat)

Angren ko‘mir konida qoplama jinslarni qazib olishda ishlatilayotgan “ekskavator-maydalash qurilmasi-qayta yuklagich-konveyer” kompleksi uchun optimal zaboy kengligini hisoblash. Ekskavatorning yukni bo‘shatish uchun turli burchaklarga burilishida β ning turli qiymatlari uchun mos keluvchi unumdorlik Q_3 ning qiymatlarini topish va $Q_3 = f(B_z)$ funksiya grafigini qurish.

3-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: MOBIL MAYDALASH -QAYTA YUKLASH-KONVEYER MAJMUALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TOG‘ JINSLARINI QAZIB OLIISHNING DAVRIY-UZLUKSIZ TEXNOLOGIYA SXEMALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI ANIQLASHNI MATEMATIK MODELLASHTIRISH (2 soat)

Angren ko‘mir koni misolida mobil maydalash qurilmalari ishlatiladigan komplekslarni qo‘llashda yuklash, maydalash va tashish energiya sarfini hisoblash. Turli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini solishtirish. Avtomobil transporti yordamida tashish energiya sarfini hisoblash. Mobil maydalash -qayta yuklash-konveyer majmualaridan foydalangan holda tog‘ jinslarini qazib olishning davriy-uzluksiz texnologiyasining iqtisodiy samaradorligini aniqlashni matematik modellashtirish

4-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: EKSKAVATOR-AVTOMOBIL MAJMUASINING PARAMETRLARINI ANIQLASHNING GRAFIK-ANALITIK USULINI ISHLAB CHIQUISH (2 soat)

Ekskavator va avtosamosvallarning eng maqbul ishlatish ko‘rsatgichlarini belgilash, unumdorligini oshirish uchun avtotransport ishini matematik modellashtirish. Avtosamosvallarning bo‘sh turish vaqtlarini kamaytirish va shu orqali ekskavatorlardan maksimal foydalanish va yangi matematik usulini tadqiq qilish.

5-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: KARYERLARDA SAMOSVALLARNING HARAKAT PARAMETRLARINI ANIQLASHNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH (2 soat)

Ekskavator va avtosamosvallarning unumdorligini oshirish uchun avtotransport ishini matematik modellashtirish va hisoblash usullari. Avtotransporning tortish hisoblari va asosiy ko‘rsatgichlarini matematik hisoblashning zamonaviy usullari. Zamonaviy avtotransport vositalarining ishini tashkil qilish, ularning smenalik, sutkalik ekspluatatsion ko‘rsatgichlarini belgilash hisoblari. Avtosamosval tortish kuchining uning harakat tezligiga bog‘liqligini tasvirlovchi empirik formula ishlab chiqish.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

Modulni o‘qitish jarayonida quyidagi ta‘limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:

- ma‘ruza;
 - amaliy mashg‘ulot.
- O‘quv ishini tashkil etish usuliga ko‘ra:
- jamoaviy;
 - guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
 - yakka tartibda

Dasturning informasion-metodik ta‘minoti

Fanni o‘qitish jarayonida zamonaviy metodlarni, pedagogik va axborot texnologiyalarni ko‘llashni:

- fanning barcha ma‘ruzalari bo‘yicha zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida multimediyali taqdimot tayyorlashni;
- amaliy mashg‘ulotlarda pedagogik va axborot-komunikasiya texnologiyalaridan keng foydalanishni;
- tinglovchilarning ilg‘or tajribalarni o‘rganishni va ommalashtirishni nazarda tutadi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10-fevraldagi 20-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” Nizomi mavjud. Ammo, mamlaktimizda o‘tkazilayotgan islohatlar OTMda chuqur kasbiy bilimlarga, ilmiy yutuqlarga, ijodiy, ilmiy salohiyatga, yuksak intellektual qobiliyat va axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari darajasida mutaxassislar tayyorlash bilan shug‘ullanishga munosib malakali pedagog kadrlarni tanlash uslubini yaratishni ham talab etmoqda. Bu borada ma‘lum ishlar mutaxassislar tomonidan olib

borilmoqda. Biz ham ushbu bitiruv ishi ko‘lamida o‘z takliflarimizni berishni lozim ko‘rdik.

6-jadvalda pedagog xodimlar faoliyatini baholashning yuqorida eslatilgan nizomga asosan hozirgi vaqtdagi baholash parametrlari berilgan.

6-jadval

| Pedagog xodimlar faoliyatini baholash va natijalari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha Yo'riqnoma | | |
|--|--|-------------|
| <i>T/r</i> | Ko'rsatkichlar | Ball |
| O'quv-metodik faoliyati (40 ball) | | 40 |
| 1 | O'qituvchilik faoliyati (20 ball): | 20 |
| 1.1. | Nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni va o'qitiladigai fanning zamonaviy tendensiyalarini egallaganlik darajasi (ochiq mashg'ulotlar natijalari bo'yicha). | 8 |
| 1.2. | O'qitish sifati darajasi (talabalardan so'rab chiqish natijalari bo'yicha). | 5 |
| 1.3. | Talabalarining o'qituvchining yo'llanmasi (fani) bo'yicha olimpiadalarda, har xil tanlovlar va ilmiy grantlardagi ishtiroki. | 7 |
| 2 | Metodik ishlar (20 ball): | 20 |
| 2.1. | Yil mobaynida oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi tomonidan nashr etilgan darsliklar va o'kuv qo'llanmalar. | 8 |
| 2.2. | O'qitishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi, o'kuv kursini va o'quv-taqdimot materiallarini ishlab chiqish. | 7 |
| 2.3. | Uquv jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalari va talabalar bilimlarini baholashning ilg'or usullari qo'llanilishi darajasi. | 5 |
| Tarbiyaviy faoliyati (20 ball) | | 20 |
| 3 | Talabalar bilan tarbiyaviy ish bo'yicha tadbirlarda ishtirok etish: ma'naviy-ma'rifiy ishlar, sport klublari, ilmiy, ijodiy to'garaklar, madaniy tadbirlar va shu kabilar. | 5 |
| 4 | Talabalarining akademik guruhlarida kuratorlik. | 6 |
| 5 | Talabalarining o'qishdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etishdagi ishtiroki. | 5 |
| 6 | Idora, mintaqa doirasida bajariladigan jamoatchilik ishlari va oliy ta'limdan tashqari ishlar. | 4 |
| Ilmiy faoliyati (30 ball) | | 30 |
| 7 | Ilmiy konferetssiyalar ishida ishtirok etish. | 5 |
| 8 | Ilmiy nashrlarda (shu jumladan xorijiy ilmiy nashrlarda) materiallar, monografiyalar e'lon qilish. | 5 |
| 9 | Xalkaro, ilmiy loyihalarga, xo'jalik shartnomalariga raxbarlik qilish yoki ularda ishtirok etish. | 5 |
| 10 | Patentlar va ixtirolar. | 5 |
| 11 | Katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilarning dissertatsiya tadqiqotlariga ilmiy rahbarlik qilish. | 5 |

| | | |
|--|---|-----|
| 12 | Doktorlik dissertatsiyasi doirasida ilmiy tadqiqot olib borish. | 5 |
| Oliy ta'lim muassasasini rivojlantirishga qo'shgan ulushi (10 ball) | | 10 |
| 13 | Boshqa ta'lim muassasalari: oliy ta'lim muassasalari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikni mustahkamlashda ishtirok etish (o'qituvchanlik faoliyati va ular uchun bilimlar darajasini oshirish treninglarini tashkil etish). | 3 |
| 14 | Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan ayirboshlash dasturlarida ishtirok etish va ularni tashkil etish. | 4 |
| 15. | Yangi yo'nalishni, yangi kafedrani, laboratoriyani ochish ishida, Axborot-resurs markazining elektron bazasini to'ldirishda ishtirok etish. | 3 |
| Shaxsiy fazilatlari (10 ball) | | 10 |
| 16. | Ilmiy daraja va ilmiy unvon. | 3 |
| 17. | Malaka oshirish kurslaridan o'tish. | 2 |
| 18. | Xorijiy tillarni egallaganlik, materiallarni ishlab chiqish va fanni o'qitishda ulardan amalda foydalanish. | 2 |
| 19. | Xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy muassaslarda stajirovkadan o'tish. | 3 |
| JAMI (eng ko'p ball - 110) | | 110 |

Yuqoridagi jadvalda faoliyatning ajratib ko'rsatilgan turlari, ularga beriladigan ballar o'zgartirishni talab etishni anglatadi. Bu o'zgartirishlarni kafedra a'zolari – professor-dotsentlar va katta o'qituvchi-assistenlar bo'yicha alohida-alohida ko'rib chiqamiz (7,8-jadvallar).

7-jadval

Professorlar, dotsentlar faoliyatini baholash - KPI

| <i>T/r</i> | Ko'rsatkichlar | Ball |
|--|--|-------------|
| O'quv-metodik faoliyati (30 ball) | | 40 |
| 1 | O'qituvchilik faoliyati (10 ball): | 10 |
| 1.1. | O'qitish sifati darajasi (talabalardan so'rab chiqish natijalari bo'yicha). | 5 |
| 1.2. | Talabalarining o'qituvchining yo'llanmasi (fani) bo'yicha olimpiadalarda, har xil tanlovlar va ilmiy grantlardagi ishtiroki. | 5 |
| 2 | Metodik ishlar (20 ball): | 20 |
| 2.1. | Yil mobaynida oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi tomonidan nashr etilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari. | 20 |
| Tarbiyaviy faoliyati (10 ball) | | 10 |
| 3 | Talabalar bilan tarbiyaviy ish bo'yicha tadbirlarda ishtirok etish: ma'naviy-ma'rifiy ishlar, sport klublari, ilmiy, ijodiy to'garaklar, madaniy tadbirlar va shu kabilar. | 5 |
| 6 | Idora, mintaqa doirasida bajariladigan jamoatchilik ishlari va oliy ta'limdan tashqari ishlar. | 5 |
| Ilmiy faoliyati (50 ball) | | 50 |

| | | |
|--|--|-----|
| 7 | Ilmiy konferetssiyalar ishida ishtirok etish. | 6 |
| 8 | Ilmiy nashrlarda (shu jumladan xorijiy ilmiy nashrlarda) materiallar, monografiyalar e'lon qilish. | 12 |
| 9 | Xalkaro, ilmiy loyihalarga, xo'jalik shartnomalariga raxbarlik qilish yoki ularda ishtirok etish. | 12 |
| 10 | Patentlar va ixtirolar. | 10 |
| 11 | Katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilarning dissertasiya tadqiqotlariga ilmiy rahbarlik qilish. | 5 |
| 12 | Doktorlik dissertasiyasi doirasida ilmiy tadqiqot olib borish. | 5 |
| Oliy ta'lim muassasasini rivojlantirishga qo'shgan ulushi (10 ball) | | 10 |
| 13 | Boshqa ta'lim muassasalari: oliy ta'lim muassasalari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikni mustahkamlashda ishtirok etish (o'qituvchanlik faoliyati va ular uchun bilimlar darajasini oshirish tren-inglarini tashkil etish). | 5 |
| 14 | Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan ayirboshlash dasturlarida ishtirok etish va ularni tashkil etish. | 5 |
| JAMI (eng ko'p ball - 100) | | 100 |

8-jadval

Katta o'qituvchilar, assistentlar faoliyatini baholash - KPI

| <i>T/r</i> | Ko'rsatkichlar | Ball |
|--|--|-------------|
| O'quv-metodik faoliyati (30 ball) | | 30 |
| 1 | O'qituvchilik faoliyati (20 ball): | 15 |
| 1.1. | Nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni va o'qitiladigai fanning zamonaviy tendensiyalarini egallaganlik darajasi (ochiq mashg'ulotlar natijalari bo'yicha). | 5 |
| 1.2. | O'qitish sifati darajasi (talabalardan so'rab chiqish natijalari bo'yicha). | 5 |
| 1.3. | Talabalarining o'qituvchining yo'llanmasi (fani) bo'yicha olimpiadalarda, har xil tanlovlar va ilmiy grantlardagi ishtiroki. | 5 |
| 2 | Metodik ishlar (20 ball): | 15 |
| 2.1. | Yil mobaynida oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi tomonidan nashr etilgan o'quv-uslubiy ko'rsatmalar. | 5 |
| 2.2. | O'qitishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi, o'quv kursini va o'quv-taqdimot materiallarini ishlab chiqish. | 5 |
| 2.3. | Uquv jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalari va talabalar bilimlarini baholashning ilg'or usullari qo'llanilishi darajasi. | 5 |
| Tarbiyaviy faoliyati (20 ball) | | 20 |
| 3 | Talabalar bilan tarbiyaviy ish bo'yicha tadbirlarda ishtirok etish: ma'naviy-ma'rifiy ishlar, sport klublari, ilmiy, ijodiy to'garaklar, madaniy tadbirlar va shu kabilar. | 10 |

| | | |
|--|---|-----|
| 6 | Idora, mintaqa doirasida bajariladigan jamoatchilik ishlari va oliy ta'limdan tashqari ishlar. | 10 |
| Ilmiy faoliyati (30 ball) | | 30 |
| 7 | Ilmiy konferetssiyalar ishida ishtirok etish. | 6 |
| 8 | Ilmiy nashrlarda (shu jumladan xorijiy ilmiy nashrlarda) materiallar, monografiyalar e'lon qilish. | 6 |
| 9 | Xalkaro, ilmiy loyihalarga, xo'jalik shartnomalariga raxbarlik qilish yoki ularda ishtirok etish. | 6 |
| 10 | Patentlar va ixtirolar. | 6 |
| 12 | Doktorlik dissertasiyasi doirasida ilmiy tadqiqot olib borish. | 6 |
| Oliy ta'lim muassasasini rivojlantirishga qo'shgan ulushi (10 ball) | | 10 |
| 13 | Boshqa ta'lim muassasalari: oliy ta'lim muassasalari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikni mustahkamlashda ishtirok etish (o'qituvchanlik faoliyati va ular uchun bilimlar darajasini oshirish treninglarini tashkil etish). | 5 |
| 14 | Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan ayirboshlash dasturlarida ishtirok etish va ularni tashkil etish. | 5 |
| Malaka oshirish va stajirovkalar (10 ball) | | 10 |
| 17. | Malaka oshirish kurslaridan o'tish. | 4 |
| 19. | Xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy muassaslarda stajirovkadan o'tish. | 6 |
| JAMI (eng ko'p ball - 100) | | 100 |

Biz taklif qilayotgan baholash parametrlari mazmuni quyidagicha: avvalambor, baholashda professor-o'qituvchilarni turi bo'yicha ajratilgan, ya'ni fan doktori, professor va yosh assistent faoliyatini bitta shkala bo'yicha baholash – metodik xatodir. Ikkinchidan, ayrim faoliyat turi, masalan, 18 punktdagi “Xorijiy tillarni egallaganlik, materiallarni ishlab chiqish va fanni o'qitishda ulardan amalda foydalanish” olib tashlandi. Bunga sabab ayrim faoliyat turlari bir necha marta baholanish hollari mavjud, masalan, 1.2 punktdagi “O'qitish sifati darajasi (talabalardan so'rab chiqish natijalari bo'yicha)” faoliyat turi yuqorida ko'rsatilgan 18 punktdagi faoliyatni qamrab oladi (6-jadval) va h.k.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MA`RUZA

KONCHILIK MASHINALARINI ISHLAB CHIQRISHNING JAHON BOZORIDAGI ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

REJA:

1. Zamonaviy mexanik ekskavatorlarning asosiy ishlab chiqaruvchilari;
2. Jahonda ochiq kon ishlari uchun eng ko'p talab qilinadigan mashinalarning xalqaro bozori holatini tahlil qilish, uni yanada rivojlantirish tendentsiyalari.

Tayanch soʻz va atamalar: mexanik ekskavator, kon jinslarini qazish, massiv, yuklash va tashish uskunalari, rivojlanish tendentsiyalari, ishlab chiqaruvchilar, ekskavator texnik tavsiflari, texnik ko'rsatgichlar, ishlatilish ko'lemi, ochiq kon ishlari, xalqaro bozor.

1. Zamonaviy mexanik ekskavatorlarning asosiy ishlab chiqaruvchilari

Bucyrus International kompaniyasi Caterpillar kompaniyasiga aylantirilgandan keyin 2011 yildan boshlab karyer mexanik ekskavatorlarini ishlab chiqara boshlagan. Shundan boshlab uning Milwaukee shahridagi (AQSh) zavodlari tishli reykali (1997 yildan buyon Marion kompaniyasi kovsh sig'imi 7-18 m³ bo'lgan 182M modelini) va kanatli to'g'ri lopatali (Bucyrus ekskavatorlari) mexanik ekskavatorlarini hamda yangi gidravlik tizimli «HydraCrowd» ekskavatorlarini (1-rasm) ishlab chiqarmoqda. Ushbu «HydraCrowd» gidravlik ekskavatorlari Bucyrus kompaniyasi tomonidan patentlashtirilgan va 2007 yildan Kanadaning Shimoliy Alberta shtatida neftli qumlarni qazib olish karyerida ishlatila boshlagan.

«HydraCrowd» ekskavatorlari kuch berish gidrosilindri ($D = 360$ mm) va shtoki ($D = 250$ mm) diametri $D = 1500$ mm bo'lgan trubali qoplama ichiga o'rnatiladi va chetiga sharnirli maxkamlanadi, shtok ham o'z navbatida egarli uzal yo'naltirgichi bo'ylab harakatlanuvchi $D = 920$ mm bo'lgan truba ichiga o'rnatilgan bo'lib, silindrning qoplama trubasiga ulangan hamda ekskavator strelasida o'q tayanchiga maxkamlangan. Silindrning porshen osti bo'shlig'iga bosim ostidagi moy berilganda shtok va mos ravishda rukoyat $0,66$ m/s tezlikda 6.2 m uzunlikda va 1225 kN kuch bilan oldinga chiqadi.

Ekskavatoridagi "HydraCrowd" gidrotizimiga boshqarilmaydigan 4 ta aksial-porshenli nasoslari bilan ($r = 24,5$ MPa, $Q = 1892$ l/min) ta'minlangan moystansiyasi hamda boshqariladigan 520 kVt quvvatli o'zgaruvchan tok elektromotorlari xizmat qiladi. Bu stansiya strela asossiga joylashtirilgan. Gidrosilindrning hisobli xizmat muddati – birinchi texnik ko'rikkacha (TO) 2 yilni tashkil qiladi. Ushbu tizimning kanatli kuch berish tizimidan asosiy afzalligi – har 1500-1800 soat ishlatish davrida almashtiriladigan kanatlarning yo'qligidir.



1-rasm. Saterpillar kompaniyasining «HydraCrowd» gidravlik kuch beruvchi mexanizimli 495HF karyer mexanik ekskavatori

Cat kompaniyasi FastFil konstruksiyasidagi kovshlarni taklif etadi (rasm 2). Ushbu kovsh kesuvchi kromkasining frontal qismi optimallashtirilgan geometriyaga ega bo'lib, zaboy zaminini tozalashni osonlashtiradi va kovshning masivga kirish qarshiligini kamaytiradi. Kovsh tubiga tomon trapesiyali kengayish shaklidagi ko'ndalang kesimga ega bo'lib, to'lish koeffitsiyentining 100 % gacha va undan yuqori bo'lishini ta'minlaydi.



2-rasm. Optimallashtirilgan geometriyali FastFil konstruksiyali kovsh

Cat kompaniyasining elektr yuritmalı kanatli ekskavatorlarining 5 ta modeli ishlab chiqariladi (1-jadval).

Caterpillar kompaniyasi ishlab chiqarayotgan ekskavatorlariga oldingi Bucyrus kompaniyasi belgilagan markirovkalarni saqlab qolgan, faqat ularning oldiga 7 sonini

qo'yg'an bo'lib bu son mexanik lopatalarga tegishli sinflanishni bildiradi. Hidravlik ekskavatorlarga 6, draglaynlarga esa 8 soni qo'yiladi.



3-rasm. Sat 7295 va Cat 7395 to'g'ri lopatali karyer mexanik ekskavatorlari

1-jadval

Caterpillar kompaniyasi ishlab chiqarayotgan ekskavatorlarning asosiy bazaviy modellari

| Model | Kovsh sig'imi, m ³ | Kovshdagi yuk massasi, t | Maks. qamrash radiusi, m | Maks. qamrash balandligi, m | Ishchi masasi, t |
|-----------------|-------------------------------|--------------------------|--------------------------|-----------------------------|------------------|
| 7295* | 18,4-39,0 | 45,4 | 21,8 | 15,6 | 789,25 |
| 7395 | 19,1-61,2 | 63,5 | 23,3 | 16,7 | 1179,34 |
| 7495HD | 19,1-61,2 | 81,8 | 24,0 | 17,3 | 1306,34 |
| 7495; 7495HF | 30,6-61,2 | 100 | 25,0 | 18,0 | 1372,12 |

Eslatma: * 7295 modeli kanatli kuch berish tizimiga ega, lekin tishli reykali modeli ham ishlab chiqarilgan; HF modeli kengaytirilgan ishchi ko'rsatgichlarga ega, lekin massivga beradigan nisbiy bosimi kichik.

Cat mexanik lopatalarining asosiy xususiyatlaridan biri izolasiya qilingan zatvorli bipolyar tranzistorlar ishlatiluvchi IGBT (Insulated gate Bipolar Transistor) modullari bilan o'zgaruchan tok elektr uskunalari ishlatilishidir. Bu esa o'z navbatida o'zgarmas tokda ishlaydigan yuritmal mashinalarga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi:



4-rasm. «Tugnuyskiy» ko'mir konida ishlayotgan Cat (Bucyrus) kompaniyasining 495HD ekskavatori

Surface Mining (P&H) kompaniyasi - Joy Global korporasiyasining bir bo'linmasi bo'lib, 5 ta modeldagi karyer elektrik ekskavatorlarni bozorga ishlab chiqaradi (2-jadval).

2-jadval

P&H kompaniyasi ishlab chiqargan karyer elektrik ekskavatorlari modellari

| Model | Kovsh sig'imi, m ³ | Kovshdagi yuk massasi, t | Maks. qamrash radiusi, m | Maks. qamrash balandligi, m | Ishchi masasi, t |
|------------|-------------------------------|--------------------------|--------------------------|-----------------------------|------------------|
| 2300XRS | 18,3-25,5 | 45,4 | 21,3 | 13,6 | 775 |
| 2800XRS | 26,8-33,6 | 59,0 | 24,2 | 16,6 | 1079 |
| 4100S | 42,8-47,7 | 81,6 | 24,7 | 15,8 | 1243 |
| 4100S BOSS | 44,3 | 60,7 | 23,9 | 16,8 | 1459 |
| 4100XPC | 52,8-61,2 | 108,9 | 23,9 | 16,8 | 1532 |

2007 yildan boshlab Surface Mining (P&H) kompaniyasi o'zgaruvchan tokda ishlaydigan yuritmalik ekskavatorlarini ishlab chiqara boshlagan. Bu esa ularga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini ancha soddalashtirishga va arzonlashtirishga hamda rivojlanish tendensiyalariga mos keladi. P&H ekskavatorlarining asosiy ish jarayonlarini boshqarish joystik-kontrolerlari yordamida amalga oshiriladi.



5-rasm. P&H kompanisining tishli reykali kuch berish tiimli 4100XRS eng katta karyer mexanik ekskavatori

Mashinist ish samaradorligini oshirish uchun P&H ekskavatorlari butun mashina bo'ylab joylashtirilgan datchiklar tarmog'idan ma'lumotlarni to'plash va yuritmalarni boshqarishni ta'minlovchi «Centurion» tizimi bilan jihozlangan. Mashina kabinasi mashinist uchun qulay joylashgan grafik interfeysli navigator bilan jihozlangan (7-rasm). Sensorli ekran yordamida bir vaqtning o'zida mashinaning kuch berish, ko'tarish, burilish kabi ishchi mexanizmlarini raqamli boshqarish mumkin, bu esa ekskavator ish siklini samarali boshqarish va qisqartirish imkonini beradi.



6-rasm. P&H ekskavatorining grafik interfeysli ekrani bilan jihozlangan machinist kabinasi

Podsystema «OPTIDIG» predotvrashchayet zaklinivaniye kovsha v zaboye, avtomaticheskii pozitsioniruya yego v zaboye, obespechivayet ravnomernoye dvizheniye kovsha pri cherpanii za schet regulirovaniya vydvizheniya rukoyati, a pri vozniknovenii nepreodolimykh prepyatstviy, avtomaticheskii podayet rukoyat nazad.

Podsystema «Payload» izmeryayet zagruzku kovsha, otsleживaya massu gornoy massы v kovshe i otkloneniye ot zadannogo urovnya, fiksiruyet sredniye pokazateli za smenu, otobrajayet eti dannyye na tom je sensornom ekrane kompyutera, chto pozvolyayet polnostyu ispolzovat gruzopodyemnost avtosamosvala pri pogruzke. Modul sistemy «PreVail» kontroliruyet ispravnost uzlov ekskavatora posredstvom distansionnogo monitoringa, sobirayet, analiziruyet i peredayet dannyye o sostoyanii razlichnykh sistem ekskavatora v servisnyy sentr, blagodarya chemu servis-injenerы быстро выявляyut prichinu neispravnosti, operativno yeye ustranyayut i predotvrashchayut poyavleniye yeye v budushyem.

16 m³ sig'imli kovshga ega bo'lgan P&H 2300XP karyer mexanik lopatalari Kuzbass karyerlariga 1982-1985 yillardan olib kelingan. So'ngi yillarda Kuzbass konchilik korxonalariga 26 ta quvvatli ekskavatorlar olib kelingan, shundan 9 tasi P&H 2300XPS (kovsh hajmi 25 m³), 15 ta P&H 2800XP modelidagi mexlopata (33,6 m³) i 2 ta P&H 4100XPS (55,8 m³) mexlopatasi.

Hozirgi kunlarda bu yangi texnikalar «Kuzbassrazrezugol» kompaniyasiga qarashli Bachatsk, Taldinsk va Kedrovsk ko'mir konlarida, «Yujnyy Kuzbass» kompaniyasining Sibirginsk razrezida, Kuzbas yoqilg'i kompanisining Vinogradovsk razrezida, «Mejdurechye» kompaniyasining Mejdurechensk razrezida, «SUEK» OAJ ning «Zarechnyy» razrezida, «Chernigoves» kompaniyasining Chernigovsk razrezlarida ishlatilmoqda.

Tayyuan og'ir mashinasozlik zavodida (TZ) (Taiyuan Heavy Industry Co.) ishlab chiqarilgan karyer ekskavatorlari. Tayyuan Xitoydagi karyer ekskavatorlari ishlab chiqaradigan asosiy zavodlardan biridir. Ushbu zavodda kovsh hajmi 4 dan 76 m³ gacha bo'lgan tishli reykali kuch berish tizimida ishlovchi 9 modeldagi to'g'ri lopatali karyer ekskavatorlari ishlab chiqariladi. Bu ekskavatorlar zamonaviy o'zgaruvchan tok elektr yuritmalari bilan jihozlangan. Hozirgi kunda Rossiya davlatining ko'plab karyerlarida bunday ekskavatorlarning WK-12, WK-20, WK-35 i WK-55 (3-jadval) modellari ishlatilmoqda. Tayyuan zavodining Rossiya va MDH davlatlaridagi rasmiy dilleri - «TZ-AVIK Servis» (AVIC International Aero-Development Corporation) kompaniyasi hisoblanadi.

3-jadval

Tayyuan og'ir mashinasozlik zavodida (TZ) (Taiyuan Heavy Industry Co.) ishlab chiqarilgan karyer ekskavatorlari texnik ko'rsatkichlari

| Model | Kovsh sig'imi, m ³ | Kovshdagi yuk massasi, t | Maks. qamrash radiusi, m | Maks. qamrash balandligi, m | Ishchi masasi, t |
|-------|-------------------------------|--------------------------|--------------------------|-----------------------------|------------------|
|-------|-------------------------------|--------------------------|--------------------------|-----------------------------|------------------|

| | | | | | |
|-------|-------|-----|------|------|------|
| WK-12 | 10-16 | 35 | 18,9 | 13,6 | 485 |
| WK-20 | 16-34 | 45 | 21,2 | 14,4 | 731 |
| WK-27 | 23-46 | 59 | 23,4 | 16,3 | 907 |
| WK-35 | 25-54 | 75 | 24 | 16,2 | 1020 |
| WK-55 | 36-76 | 103 | 23,9 | 16,1 | 1460 |

2010 yilning sentyabr oyida birinchi bor tajriba-sinov maqsadida «UK «Kuzbassrazrezugol» OAJ ga qarashli Bachatsk razreziga kovsh hajmi 35 m³ bo'lgan WK-35 ekskavatori olib kelingan. 2011 yilda ushbu ekskavator ustida o'tkazilgan sinov jarayonlari muvaffaqiyatli yakunlangan va ekskavatorning texnik tayyorgarligi 95 % ni tashkil etgan. Sinov natijalari xulosalari bo'yicha «UK «Kuzbassrazrezugol» OAJ yana 4 dona kovsh hajmi 35 m³ bo'lgan WK-35 ekskavatorlarini xarid qilgan. Ushbu ekskavatorlar Taldins va Krasnobrodsk razrezlarida ham samarali ishlatilmoqda.



7-rasm. Bachatsk ko'mir razrezida ishlatilayotgan Tayyuanskogo zavodida ishlab chiqarilgan WK-35 ekskavatori

2. Jahonda ochiq kon ishlari uchun eng ko'p talab qilinadigan mashinalarning xalqaro bozori holatini tahlil qilish, uni yanada rivojlantirish tendentsiyalari.

P.G. Korobkov nomidagi «IZ-KARTEKS» zavodida karyer mexanik ekskavatorlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish tendentsiyalari. IZ-KARTEKS – Rossiya va MDH davlatlaridagi eng yirik elektrlashgan karyer mexanik ekskavatorlarini ishlab chiqaruvchi korxonaga hisoblanadi. Ushbu zavodda 1957 yildan boshlab 3500 dan oshiq elektrlashgan karyer mexanik ekskavatorlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, shundan hozirgi kunlarda 1200 tasi dunyoning turli konchilik korxonalari ishlatilmoqda. Ushbu

mashinalarning asosiy afzalliklari – kovsh hajmining turli o'lchamlari (8-15, 32 m³) ishlab chiqarilishi. Oxirgi yillarda IZ-KARTEKS kompaniyasi tomonidan jahon bozoriga yuqori quvvatli, zamonaviy, kovsh hajmi 12, 18 va 32 m³ bo'lgan yangi ekskavatorlar ishlab chiqarmoqda.

Bu ekskavatorlar - EKG-12K, EKG-18R i EKG-32R ekskavatorlari bo'lib, kompaniyaning rivojlanish strategiyasi rejalariga mosdir. Hozirgi kunda ushbu zavodda kovsh hajmi 60 m³ bo'lgan yuqori quvvatli EKG-50 innovasion ekskavatorining ishchi loyihasi yakunlanish bosqichida.

1985 yildan EKG-12,5 ekskavatori asosida kovsh hajmi 15 m³ bo'lgan EKG-15 ekskavatori 2012 yilgacha 108 dona ishlab chiqarilgan. 1989 yilda EKG-15 ekskavatori bazasida EKG-20I ekskavatoridan bir dona ishlab chiqarilgan, 2010 yilda esa zavod tarixida birinchi bor tishli reykali kuch berish tizimidagi EKG-18R (kovsh hajmi 18 m³) ishlab chiqarilgan. Ushbu mashinadan 5 dona ishlab chiqarilgan.

Ushbu kompaniya tomonidan 2008-2013 yillar davomida Rossii, MDH mamlakatlari va Xorij mamlakatlari konchilik korxonalariga kovsh hajmi 10-18 m³ bo'lgan 146 dona ekskavatorlar yetkazib bergan bo'lib, ularning 102 donasi kovsh hajmi 10 m³ (rasm-8, a), 6 donasi kovsh hajmi 12 m³, 31 donasi kovsh hajmi 15 m³, 5 donasi kovsh hajmi 18 m³ va faqat bir donasi kovsh hajmi 32 m³ bo'lgan ekskavatorlardir. Eng katta quvvatli tishli reykali kuch berishtizimiga ega bir balkali rukoyatli EKG-32R (rasm-8, v) mexanik ekskavatori 2011 yilda Krasnobrodsk razrezi uchun ishlab chiqarilgan.





8-rasm. IZ KARTEKS zavodi ekskavatorlari:

- a) eng ommapob kanatli kuch berish tizimiga ega EKG-10 modeli;
- b) Taldinsk razrezidagi tishli reykali va bir balkali strelali EKG-18R ekskavatori;
- v) Krasnobrodsk razrezidagi tishli reykali bir balkali rukoyatli EKG-32R ekskavatori.

Hozirgi vaqtda IZ-KARTEKS zavodida ommabom ishlab chiqarilgan EKG-10 va keng tarqalgan EKG-15 ekskavatorlari qatorida kanatli va tishli reykali kuch berish tizimida ishlovchi yana 4 ta yangi modeldagi ekskavatorlar ishlab chiqarilmoqda (4-jadval).

4-jadval

IZ-KARTEKS kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan elektrlashgan karyer ekskavatorlari

| Model | Kovsh sig'imi, m ³ | Kovshdagi yuk massasi, t | Maks. qamrash radiusi, m | Maks. qamrash balandligi, m | Ishchi masasi, t |
|-------------|-------------------------------|--------------------------|--------------------------|-----------------------------|------------------|
| EKG-10 | 15-12,5 | 20 | 18,4 | 13,5 | 410 |
| EKG-15 | 8-18 | 30 | 22,6 | 15,8 | 700 |
| EKG-12K | 6,3-16 | 30 | 18,6 | 15,0 | 410 |
| EKG-20K/18R | 18/16-28 | 40/38 | 22,6/21,7 | 17,3/16 | 700/710 |
| EKG-35K/32R | 20-45 | 63/57,6 | 24/24 | 19/19 | 1030 |
| EKG-50* | 54-77 | 106 | 24,0 | 17,0 | 1550 |

Eslatma: * loyihalana yotgan tishli reykali kuch berish tizimida ishlab chiqariladigan ekskavator modeli

IZ-KARTEKS zavodida ishlab chiqarilayotgan EKG-12K, EKG-20K/18R va EKG-35K ekskavatorlarining yangi modellarida (Tp-D, Trp-D) turidagi o'zgarmas tokda ishlovchi chastotali-boshqariladigan elektryuritmalar bilan, EKG-32R va loyihalananayotgan EKG-50 ekskavatorlarida esa (PCh-AD) turidagi o'zgaruvchan tokda ishlovchi elektr yuritmalar bilan jihozlangan. Ushbu o'zgaruvchan tok yuritmalariga xizmat ko'rsatish va ishlatish ancha oson va mashinani boshqarish va ishchi mexanizmlar ishining tekis va ravonligini ta'minlaydi.

«URALMASHZAVOD» OAJ da karyer mexanik ekskavatorlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish tendentsiyalari. «URALMASHZAVOD» OAJ zavodida ishlab chiqariladigan EKG-5A, EKG-12A, EKG-18 i EKG-30 modellaridagi gusenisali karyer mexanik ekskavatorlarining texnik ko'rsatgichlari 5-jadvalda ko'rsatilgan.

5-jadval

«URALMASHZAVOD» OAJ zavodida ishlab chiqariladigan elektrlashgan gusenisali karyer mexanik ekskavatorlari tavsiflari

| Model | Kovsh sig'imi, m ³ | Kovshdagi yuk massasi, t | Maks. qamrash radiusi, m | Maks. qamrash balandligi, m | Ishchi masasi, t |
|---------|-------------------------------|--------------------------|--------------------------|-----------------------------|------------------|
| EKG-5A | 4,6-6,3 | 35 | 14,5 | 10,3 | 196 |
| EKG-12A | 12-16 | 45 | 21,0 | 15 | 655 |
| EKG-18 | 16-20 | 59 | 22,2 | 16,4 | 750 |
| EKG-30* | 24-40 | 75 | 26 | 19,5 | 1250 |

Izoh: *loyihalananayotgan (PCh-AD) turidagi o'zgaruvchan tokda ishlovchi elektr yuritmalar bilan jihozlangan


EKG-5A ekskavatori dunyo bo'yicha eng ko'p ishlatiladigan karyer gusenisali ekskavatori hisoblanib, 13 ming donadan oshiq ishlab chiqarilgan, jumladan, 1980 yildan boshlab 4500 dona. Zamonaviy EKG-5A ekskavatori modernizasiya qilingan bo'lib birinchi modifikasiyasidan ancha farq qiladi.

Kovsh hajmi 12 m³ bo'lgan birinchi EKG-12 ekskavatori (rasm-9, a) 1996 yilda Chernigovsk razrezida ishlatilgan. Ushbu mashinadan hammasi bo'lib temir ruda karyerlari uchun 17 ta ishlab chiqarilgan. 2011 yilda «UK «Kuzbassrazrezugol» OAJ ga qarashli Krasnobrodsk razrezi uchun EKG-18 (rasm-10, b) ekskavatori ishlab chiqarilgan. Ushbu modeldagi ekskavatoridan 2 dona ishlab chiqarilgan.



Рasm-9. Tishli reykali kuch berish tizimida ishlovchi to'g'ri lopatali ekskavatorlar: a -EKG-12 Chernigovsk razrezida; b - EKG-18 Krasnobrodsk razrezida

Uralmash zavodida ishlab chiqarilayotgan zamonaviy ekskavatorlar statik o'zgartirgichli va raqamli boshqarish tizimiga ega bo'lgan o'zgarimas tok elektr yuritmalari (EKG-12A) va o'zgaruvchan tok elektr yuritmalari (EKG-18) bilan jihozlangan. Bu tizim mashinaning yuqori ishonchlilikda va yuqori darajadagi FIK da ishlashini ta'minlaydi hamda energiya iste'molini kamaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari ushbu tizimning videokuzatuv, ishchi uskunalarni avtomatik himoyalash, markazlashgan avtomatik moylash va ish jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni avtomatik olish kabi funksiyalari ham bor.





Rasm-10. EKG-12A ekskavatorining ma'lumotlar tizimi ekrani: a – asosiy ekran; b – ishchi uskunalarni avtomatik himoyalash ekrani

Adabiyotlar:

1. Taylor & Francis Group. Mechanical excavation in mining and civil industries. /CRC Press, London, New York, 2014.-388 p.
7. Рухлов А.В., Герман Е.Д. Энергетические характеристики магистрального конвейерного транспорта угольных шахт / Рухлов А.В., Герман Е.Д. - [Электронный ресурс]. – Режим доступа: \WWW/ URL: <http://vde.nmu.org.ua/ua/science/ntz/archive/84/7.pdf>.

Nazorat savollari:

- 1) Mobil komplekslarning yillik unumdorligini aniqlashning nazariy asoslari;
- 2) Bir kovshli ekskavator ishlatilganda zaboy konveyer transporti bilan yuk tasishning umumiy nisbiy harajatlarini aniqlash;
- 3) Mobil komplekslar ishlatilganda umumiy nisbiy harajatlarning ish fronti uzunligiga bog'liqligini aniqlash.

4-MA'RUZA

KONCHILIK KORXONALARIDA EKSKAVATOR-AVTOMOBIL KOMPLEKSINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH TADQIQOTLARI

Ma'ruza rejasi:

- 1) Konchilik korxonalarida ishlatiladigan zamonaviy ekskavator-avtomobil komplekslari turlari, ularning kompleksda bir butun tizimda ishlashi.
- 2) Ekskavator va avtosamosvallarning unumdorligini oshirish bo'yicha belgilanadigan chora-tadbirlar, hisoblash usullari.
- 3) Ekskavator-avtomobil kompleksi ikki variantini qiyosiy tahlil qilish;

Tayanch so'z va iboralar: ekskavator-avtomobil kompleksi, bir butun tizimda ishlashi, modellashtirish, unumdorligini oshirish, smenalik, sutkalik ekspluatasion ko'rsatgichlar.

1) Konchilik korxonalarida ishlatiladigan zamonaviy ekskavator-avtomobil komplekslari turlari, ularning kompleksda bir butun tizimda ishlashi

Ko'pgina karerlarda ochiq kon ishlari texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini birinchi navbatda qoplama jinslar va foydali qazilmalarni ko'chirish jarayonlari aniqlab beradi. Hozirgi paytda konlarini ochiq usulda qazib olishda transport xarajatlari foydali qazilmalarni qazib olish uchun sarflanadigan barcha xarajatlarning 50-70% ni tashkil qiladi [1].

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday korxonaning faoliyati maksimal foyda olishga qaratilgan bo'lib, u kon massasini tashishning berilgan hajmlarini bajarishda olingan daromadlar va uni tashish xarajatlari nisbati bilan belgilanadi. Demak, transport jarayonlari ish samaradorligini oshirish asosiy vazifalardan biri bulib, bu korxonalar xarajatlarini kamaytiradi va natijada uning foydasini ko'paytiradi.

Ochiq usulda qazib olish korxonasida asosiy texnologik transport turi - avtomobil transporti hisoblanadi. AQSH, Kanada, Janubiy Amerikada avtosamosvallar bilan kon massasining 85%, Avstraliyada esa deyarli 100% tashilmoqda. Rossiya va MDH mamlakatlarida avtotransportning ulushi 75% dan oshadi va ortib borish tendensiyasi davom etmoqda [2].

Hozirgi vaqtda yuklash-tashish majmualari ish unumdorligini oshirishning asosiy usuli ekskavatorlarning yangi modellarini ishlab chiqarish va qo'llash (kovsh hajmi va quvvatni oshirish) va avtosamosvallarning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish hisoblanadi.

2010 yilda Kuzbass korxonalarida yuk ko'tarish qobiliyati 320 tonna bo'lgan birinchi BelAZ-75600 samosvallari ishga tushirildi. 2013 yilning kuzida Chernigovets ko'mir konida (Berezovskiy shahri, Kemerovo viloyati) bitta dona ishlab chiqarilgan dunyodagi eng katta yuk ko'tarish qobiliyati 450 tonna bo'lgan BelAZ-75710 samosvali ishlatilgan va hozirgi kungacha ishlatilmoqda (1-rasm).



1-Rasm. BelAZ-75710 avtosamosvali

Hozirgi kunda dunyodagi eng katta ekskavator Amerikaning Terex kompaniyasining RH400 ekskavatoridir. Uning og'irligi 1000 tonnadan ortiq (mutlaq rekord) bo'lib, kovsh sig'imi 45 m kub, yuk ko'tarish quvvati 95 tonna. Bir soatlik ish uchun bu gigant 10 ming tonnaga yaqin kon jinslarini qazish va yuklash imkoniyatiga ega (2-rasm).



2-rasm. RH400 ekskavatori

Hozirgi kunda kon mashinalari bozorida bundan ham yuqori sig'imli (60 m³ gacha) kovshli ekskavatorlarga talab allaqachon mavjud. P.G. Korobkov nomidagi "OOO IZ-KARTEKS" zavodida kovsh sig'imi 60 m³ hajmli EKGB-50 ekskavatorning loyihasi yakunlandi.

2) Ekskavator va avtosamosvallarning unumdorligini oshirish bo'yicha belgilanadigan chora-tadbirlar, hisoblash usullari

Avtosamosvallar va ekskavatorlar ishchi parametrlarining mos ravishda oshirilishi o'zaro bir-biriga bog'liq texnik shartlarni belgilab beradi.

Qoida tariqasida, ekskavator kovshi sig'imi va avtosamosval yuk ko'tarish qobiliyatining optimal nisbatini tanlash kuzovni 5-12 qazish tsiklida yuklash shartini bajarish orqali erishiladi. Avtosamosvallarni ekskavatorida yuklash sikllarining kamayishi mos ravishda butun yuklash va tashish kompleksining unumdorligini oshirish imkonini beradi. Bunga samosvalning yuk ko'tarish qobiliyatini o'zgartirmasdan ekskavatorning quvvatini oshirish orqali erishiladi, ya'ni yuklash siklining kamayishi yuklashga sarflanadigan quvvatning kamayishiga sabab bo'ladi.

Ekskavator va transport vositasining unumdorligi vaqt birligi (sekund, soat, smena, yil) da ko'chirilgan yuk miqdori (hajmi, massasi) bilan belgilanadi. Texnik va ekspluatatsion unumdorliklar farqlanadi. Texnik unumdorlik Q_T mashinaning texnik parametrlari va tashiladigan yukning xususiyatlari bilan belgilanadi. Ekspluatatsion unumdorlik $Q_{\text{Э}}$ nafaqat mashinaning texnik parametrlariga va yukning xususiyatlariga, balki haqiqiy ish sharoitlariga ham bog'liqdir [3].

Texnik va ekspluatatsion unumdorlik o'zaro quyidagi nisbat orqali bog'langandir

$$Q_{\text{Э}}/Q_T = K_{\text{Э}}$$

bu yerda $K_{\text{Э}}$ - mashinadan foydalanishning umumiy ekspluatatsiya koeffitsienti bo'lib, uning qiymati mashina kuzovining to'lalilik koeffitsiyenti K_T ga, ish vaqtdan foydalanish koeffitsiyenti K_B ga va mashinaning ishga tayyorlik koeffitsiyenti K_r ga bog'liqdir.

Mashina uzluksiz ishlaganla va kuzov to'la holatda $K_{\text{Э}} = 1$, kuzov to'liq yuklanmasi va ish vaqtida to'xtashlar bo'lsa $K_{\text{Э}} < 1$.

Texnik unumdorlikning qiymatidan kelib chiqib, ushbu unumdorlikni ta'minlaydigan mashinalarning asosiy konstruktiv parametrlari hisoblanadi.

Avtomobil transportining unumdorligi barcha transport birliklarining (samosvallarning) unumdorliklari yigindisi sifatida aniqlanadi.

$$Q = \sum Q_a$$

Bir birlik (bitta samosval) uchun vaqt birligidagi unumdorlik quyidagicha hisoblanadi

$$Q_a = r q_i$$

bu yerda $r = 1/T_r$ vaqt birligidagi reyslar soni, q_i – avtosamosval kuzovidagi yukning og'irligi, T_r – reys davomiylik vaqti.

Avtosamosvalning reys vaqti (T_r) yuk ortish (t_{yuklash}) va tushirish ($t_{\text{tushirish}}$), yukli va yuksiz yo'nalishlardagi harakat vaqtlari ($t_{\text{har.yukli}} + t_{\text{har.yuksiz}}$)dan iborat bo'ladi:

$$T_r = t_{\text{yuklash}} + t_{\text{tushirish}} + t_{\text{har.yukli}} + t_{\text{har.yuksiz}}$$

Agar reys vaqtining ushbu uchta komponentini ko'rib chiqsak, albatta, ulardan

asosiy qismini harakat vaqti egallaydi. Katta masofalarda tashishda yuklash va tushirish vaqtini e'tiborsiz qoldirishi mumkin

Agar tashish masofasi 2 km dan oshmasa, bu qiymatlarni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, yuk tushirishda kuzovni ko'tarish va tushirish vaqti amalda samosvalning yuk ko'tarish qobiliyatiga bog'liq emas (miqdori o'rtacha 40 soniyani tashkil qiladi). Yuklash vaqti esa mos ravishda yuklash pasportiga va tsikllar (yuklangan kovshlar soni) soniga muvofiq ekskavatorning kon jinsini qamrashi va burilish vaqtiga bog'liq bo'ladi, Tsikllarning soni odatda 5 dan 12 gacha bo'ladi. Shuning uchun bitta tsiklning o'rtacha davomiyligi 30 ga teng va yuklash vaqti 6 daqiqaga yetishi mumkin. Bu qiymatlar albatta samosvallarning umumiy harakat vaqti bilan taqqoslanadi.

Yuk tashish jarayonini faollashtirishning mumkin bo'lgan usullaridan biri yuqori unumdorlikli katta kovsh sig'imiga ega ekskavatorlar bilan birgalikda engil yuk ko'tarishli samosvallardan foydalanish bo'lishi mumkin

3) Ekskavator-avtomobil kompleksini ikki variantini qiyosiy tahlil qilish

Keling, bir misolni ko'rib chiqaylik.

EKG-20 ekskavatori va BelAZ-7530 samosvallaridan tashkil topgan "Ekskavator-avtomobil kompleksida yuk ko'tarish quvvati 200 tonna, kuzovining geometrik hajmi 100 m³, zichligi 2 t/m³ bo'lgan tog' jinslarini tashiydi.

Hisob-kitoblarni soddalashtirish uchun biz yuk tashish masofasini 1890 m deb hisoblaymiz, harakat tezligi - yuk tashish yo'nalishida 12 km/soat (4,2 m/s), yuksiz yo'nalishda - 26 km / s (7,2 m / s). Yuklash vaqtidagi bo'sh vaqt - 150 s (5 tsikllar 30 s), yuk tushirish vaqti - 40 s (kuzovni ko'tarish va tushirish vaqti – 20 soniya). Biz manevr vaqtini hisobga olmaymiz.

Samosvalning harakatlanish oralig'i yuklash vaqtdan kamroq bo'lishi mumkin emas (2,5 daqiqa). Yuklangan samosval tezligi 12 km/soat (4,2 m/s) bo'lsa, samosvallar orasidagi masofa 630 m bo'ladi. 3-rasmda yuklash punkti (Ek), yuk tushirish punkti (Rp) va samosvallar 1, 2, 3, 4, 5, 6 ko'rsatilgan. Diagrammada 1- samosvalning to'liq yuklangan va jo'natishga tayyor momenti vaqti ko'rsatilgan. 2 va 3 samosvallar tushirish punktiga boradigan yo'ldagi, samosval 4 yuk tushirish punktiga yetib kelgan va yuk tushirishga tayyorlanmoqda, 5 va 6 samosvallar esa yuksiz yo'nalishda harakat qilayotgan momentlari ko'rsatilgan. 30 soniyadan so'ng (ekskavatorning bir ish sikli vaqti) samosval 6 yuklanishga tayyor bo'ladi. Shunday qilib, butun ekskavator-avtomobil kompleksining uzluksiz ishlashi ta'minlanadi.

Qabul qilingan ekskavator uchun kovsh hajmi 20 m³, bir ish sikli davomiyligi 30 s, kon massasining zichligi 2 t/m³ bo'lgan holda, ekskavatorning maksimal ekpluatasion unumdorligi

$$Q_{\text{э}} = 20 \cdot 2/30 = 1,33 \text{ t/sek} = 4800 \text{ t/soat}$$


Qabul qilingan samosval uchun yukli yo'nalishidagi tezlik 12 km/soat (4,2 m/s), yuksiz yo'nalishda 26 km/soat (7,2 m/s), yuklash davrlari soni 5 (5 · 30 = 150 s), tushirish vaqti 40 s bo'lsa, reys vaqti

$$T_r = t_{\text{yuklash}} + t_{\text{tushirish}} + t_{\text{har.yukli}} + t_{\text{har.yuksiz}} =$$

$$= 2,5 + 7,9 + 5,99 + 0,67 = 17 \text{ мин} = 0,28 \text{ ч,}$$

Автосамосвалнинг максимал унумдорлиги эса

$$Q_a = r \cdot q_i = q_i / T_p = 200 / 0,28 = 714 \text{ т/ч.}$$



3-rasm. EKG-20 ekskavatori va BelAZ-7530 samosvallaridan tashkil topgan yuklash-tashish kompleksining ishlash sxemasi.


Ekskavatorning ma'lum unumdorligini ta'minlash uchun quyidagi miqdordagi samosvallar kerak bo'ladi:

$$N_a = 4800 / 714 = 6,7 \text{ avto.}$$

Yuqoridagi diagramma asosida (rasm.3) xulosa qilish mumkinki, atigi 6 ta samosvalni birgalikda ishlatilish mumkin. 6 ta samosvalni ishlatishda majmuaning unumdorligi quyidagicha bo'ladi:

$$Q = \sum Q_a = 714 \cdot 6 = 4284 \text{ t/soat.}$$

Keling, yana bir misolni ko'rib chiqaylik. EKG-20 ekskavatori va yuk ko'tarish qobiliyati 45 tonna, kuzovining geometrik hajmi 21,5 m³ bo'lgan BelAZ-7547 samosvallari dan iborat yuklash va transport majmuasi. Yuklash ostida bo'sh vaqt - 30 s (1 tsikl). Boshqa barcha jarayonlar ish parametrlarini o'zgarishsiz qoldiramiz. Yuklangan samosvalning tezligi 12 km/soat (4,2 m/s), samosvallar orasidagi masofa 126 m bo'ladi (4-rasm).



4-rasm. Tarkibida EKG-20 va BelAZ-7547 samosvallari bo'lgan yuklash-tashish majmuasining ishlash sxemasi

Reys vaqti:

$$T_r = t_{yuklash} + t_{tushirish} + t_{har.yukli} + t_{har.yuksiz} =$$

$$= 0,5 + 7,9 + 5,99 + 0,67 = 15,06 \text{ min} = 0,25 \text{ soat.}$$

Samosvalning maksimal unumdorligi:

$$Q_a = r \cdot q_i = q_i / T_p = 45 / 0,25 = 180 \text{ t / soat.}$$

Ekskavatorning belgilangan unumdorligini ta'minlash uchun kerakli samosvallari soni:

$$N_a = 4800 / 180 = 26,7 \text{ avto}$$

Shunday qilib, 26 ta BelAZ-7547 samosvallari ishlatishda majmuaning unumdorligi:

$$Q = \Sigma Q_a = 180 \cdot 26 = 4680 \text{ t/soat ni tashkil qiladi.}$$

Xulosalar

Birinchi misolda ko'rib chiqilgan kompleks (BelAZ-7530 samosvallari bilan) ga nisbatan ikkinchi kompleksning (BelAZ-7547 samosvallari bilan) unumdorligi 9% ga oshadi.

Agar 6 ta BelAZ-7530 samosvallari va 26 ta BelAZ-7547 samosvallarning narxi haqida gapiradigan bo'lsak, biz quyidagilarni aytishimiz mumkin.

Ochiq manbalardan [4] ma'lumki 450 tonnalik BelAZ-75710 7,5 mln dollar, uning narxi 220 tonnalik BelAZ-7530 samosvalidan ikki baravar qimmatroq. Shunday qilib, BelAZ-7530 narxi taxminan 3,75 million dollarni tashkil qiladi. Ushbu nisbatlarga asoslanib, 45 tonnalik BelAZ-7547 samosvalining narxi BelAZ-7530 narxidan 4,5 baravar past bo'ladi deb taxmin qilish mumkin. Shu sababli, 26 ta BelAZ-7547 samosvallarning narxi 6 ta BelAZ-7530 samosvalining narxidan kamroq bo'ladi.

Bunga yana transport kommunikatsiyalarini yaratish uchun kapital xarajatlarni sezilarli darajada kamayishini ham qo'shishimiz mumkin, chunki BelAZ-7530 samosvallarning harakatlanishi uchun yo'llarning kengligi BelAZ-7547 samosvallarga qaraganda ikki baravar ko'proqni tashkil qiladi.

Yana bir muhim jihati, agar bitta BelAZ-7530 samosvali ishlamay qolsa, yuklash va tashish kompleksi unumdorligi 27% ga kamayib ketadi. Shu bilan birga, agar bitta BelAZ-7547 samosvallari ishlamay qolsa, yuklash va tashish majmuasining unumdorligi faqatgina 4% ga pasayadi.

Lekin eng muhimi, ushbu yechimda yuklash va tashish komplekslarining unumdorligini ekskavator kovshining hajmini 157,5 m³ gacha oshirish hisobiga yanada oshirish imkonini beradi. (BelAZ-75710 samosval kuzovining hajmi).

Biroq, mavjud samosvallar konstruksiyasi 5-12 yuklash tsiklda to'ldirishga mo'ljallangan. Bu yuklash davrlarining soni ekskavator kovshidan tushgan massaning samosval ramasiga tushadigan dinamik yuklarni kamaytirish uchun zarurdir [5].

Samosvalni bitta tsiklda yuklashni ta'minlash uchun ikkita usul mavjud. Birinchi usul - bu ramaning juda ishonchli mustahkamligi, ya'ni mustahkamligining kuchaytirilishi, bu esa o'z navbatida, avtomobilning o'lchamlari va og'irligining oshishiga hamda shinalarga tushadigan yuklamaning oshishiga olib keladi, bu esa mos ravishda samosval yuk ko'tarish qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Adabiyotlar.

- 1) Бахтурин, Ю.А. Современное состояние карьерного транспорта / Ю.А. Бахтурин // Горная техника. - 2005. - № 3. - С. 16-19.
- 2) Самолазов, А.В. Основные тенденции развития экскаваторно-автомобильных комплексов / А.В. Самолазов, Н.И. Паладеева, А.А. Беликов // Горная промышленность. - 2009. - № 4 (86). - С. 20-23.
- 3) Кольга, А.Д. Повышение экологичности использования карьерных автосамосвалов в составе автопоездов на открытых горных работах / А.Д. Кольга, Е.В. Московка // Современные проблемы транспортного комплекса России. - 2016. - Т. 6. - № 1. - С. 55-57.
- 4) Самый большой в мире БелАЗ приступил к работе на Кузбассе. - URL: http://naviny.by/rubrics/economic/2014/08/22/ic_articles_113_186370.
- 5) Основы физической теории надежности деталей машин по критериям кинетической прочности материалов / В.П. Анцупов, Л.Т. Дворников, Д.Г. Громаковский [и др.] // Вестник Магнитогорского государственного технического университета им. Г.И. Носова. - 2014. - № 1. - С. 141-146.

Nazorat savollari

- 1) Konchilik korxonalarida ishlatiladigan zamonaviy ekskavator-avtomobil komplekslarining qanday turlarini bilasiz?
- 2) Ekskavator-avtomobil komplekslarining bir butun tizimda ishlashini belgilovchi asosiy omillarni keltiring?
- 3) Ekskavator va avtosamosvallarning unumdorligini oshirish bo'yicha qanday chora-tadbirlarni belgilash mumkin?
- 4) Turli variantdagi ekskavator-avtomobil komplekslarini qiyosiy tahlil qilishning qanday usullarini bilasiz?
- 5) Zamonaviy avtotransport vositalarining ishini tashkil qilish, ularning smenalik, sutkalik ekspluatasion ko'rsatgichlarini belgilash usullari?

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG'ULOT

Mobil komplekslar ishlatilganda ekskavator ish zaboyining optimal kengligini aniqlashni matematik modellashtirish

Механик экскаваторнинг yonbosh zaboyda qoplama jinslarni mobil maydalash uskunasi bunkeriga yuklash ish jarayonini ko'rib chiqamiz. Bunda ekskavator unumdorligiga katta ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatgichlardan biri zaboy kengligi V_z hisoblanadi. Zaboy kengligining oshishi yoki kamayishi ekskavator unumdorligining kamayishiga olib keladi.

Mobil maydalash qurilmasi-qayta yuklagich-konveyer kompleksi ishlatilganda ekskavator ish zaboyining optimal kengligi 2-rasmda ko'rsatilgan sxema bo'yicha aniqlangan.

Ekskavatorning texnik va ekspluatasion unumdorligi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_T = \frac{3600V_K}{t_{II}} \cdot \frac{k_H}{k_P}, m^3/soat, \quad (1)$$

$$Q_{\text{Э}} = \frac{3600 V_K}{t_{II}} \cdot \frac{t_P}{t_P + t_{II}} \cdot \frac{k_H}{k_P} \cdot k_B \cdot T_{CM}, m^3/smena, \quad (2)$$

bu yerda V_K – ekskavator kovshi sig'imi, m^3 ; t_{II} – ekskavator bir ish sikli davomiyligi, s; t_P – bir joyda ishlash vaqti, min; t_{II} – ikkinchi ish joyiga harakatlanish vaqti, min.; k_H – kovshning to'lalilik koeffitsiyenti; k_P – kon jinsining kovshdagi ko'pchish koeffitsiyenti; k_B – smena (ish) vaqtidan foydalanish koeffitsiyenti; T_{CM} – ish smenasi davomiyligi, soat.

(2) formulada keltirilgan $(t_P/(t_P + t_{II}))$ nisbat ekskavatorning keyingi ish joyiga surilishini xisobga oluvchi ish vaqtining kamayish koeffitsiyenti deb yuritiladi. Ushbu koeffitsiyent ekskavatorning smena vaqtidan foydalanish koeffitsiyentini hisoblashda e'tiborga olinishi kerak. Shuning uchun (2) formulani quyidagicha yozish mumkin.

$$Q_{\text{Э}} = \frac{3600V_K}{t_{II}} \cdot \frac{k_H}{k_P} \cdot k_B \cdot T_{CM}, m^3/soat, \quad (3)$$

Smena (ish) vaqtidan foydalanish koeffitsiyenti k_B ni quyidagicha aniqlash mumkin [1]:

$$k_B = \frac{1 - \sum \theta_j}{1 + \sum \theta_i}, \quad (4)$$

bu erda, θ_i – asosiy ishlarning nisbiy unumdorligi;

θ_j – turli (j) qo'shimcha ishlarni bajarishning nisbiy vaqti,

$$\theta_j = \frac{T_j}{T_{oj}}, \quad (5)$$

T_j – qo'shimcha j ishlarni bajarish vaqti;

$T_{oj} - T_j$ vaqti mansub bo'lgan to'liq ish vaqti oralig'i.

Mexanik ekskavatorlarning maxsus ish xususiyatlari meyoriy [84; s. 3-81] xujjatlarda keltirilgan. Ushbu meyorlarga ko'ra ekskavatorning bir ish smenasida quyidagilar belgilangan:

- tayyorlov-tugallov ishlari va ish joyiga xizmat ko'rsatish $t_{pz}=31$ min;
- shaxsiy extiyojlarga sarflanadigan vaqt $t_{ln}=10$ min;
- ekskavatorning kirishi uchun zaboyni buldozer bilan tozalash uchun belgilangan tanaffuslar, $t_{reg}=10$ min;

– tushlik uchun tanaffus $t_o=30$ min.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda quyidagilarni keltiramiz:


j=1 – smenalararo tayyorlov-tugallov ishlari va ish joyiga xizmat ko'rsatish: **$T_1=31$ min, $T_{o1}=12$ soat;**

j=2 – mashinistni shaxsiy extiyojlarga sarflanadigan vaqt: **$T_2=10$ min, $T_{o2}=12$ soat;**


j=3 – mashinistning tushlik tanaffusi: **$T_3=30$ min, $T_{o3}=12$ soat;**

j=4 – ekskavatorning kirishi uchun zaboyni buldozer bilan tozalash uchun belgilangan tanaffuslar: **$T_4=10$ min, $T_{o3}=12$ soat;**

j=5 – nogabaritlarni ajratish vaqti (smena vaqtining 3-5%): **$T_5=25$ min, $T_{o4}=12$ soat.**



Разрез А-А



Z_{n-1}, Z_n – ekskavatorning boshlang'ich va navbatdagi ishlash holatidagi aylanish markazi

2-rasm. MMQYuKK ishlatilganda ekskavator ish zaboyining optimal kengligini aniqlash sxemasi

Asossiy ishlarning nisbiy unumdorligini aniqlaymiz:

$$\theta_i = \frac{Q_T}{Q_i}, \quad (6)$$

bu yerda Q_i – i shakldagi qo'shimcha ishlarni bajarishning shartli unumdorligi,

$$Q_i = \frac{W_i}{t_{ni}}, \quad (7)$$

t_{ni} – i shakldagi qo'shimcha ishlarni bajarishning absolyut vaqti;

W_i – i shakldagi qo'shimcha ishlarni bajarishga qadar bajarilgan asosiy ishlar hajmi.

$i=1$ – ekskavatorning bir ish joyidan ikkinchi ish joyiga siljishini hisobga oluvchi vaqt:

$$\begin{aligned} T_{n1} &= T_{\Pi,Э}, \text{ МИН}, & (8) \\ W_1 &= l_{\Pi} \cdot H \cdot B, \text{ м}^3, & (9) \end{aligned}$$

bu yerda, $T_{\Pi,Э}$ – ekskavatorning bitta siljishiga sarflaydigan vaqti ($T_{\Pi,Э} = 1 \div 4$ min);

W_1 – ekskavatorning bir ish joyida turib bajaradigan ishi hajmi;

l_{Π} – ekskavator va maydalash qurilmasining bir marta siljishi uzunligi, m;

B – ish zaboyining eni, m;

H – zaboy balandligi, m.

Ekskavatorning bir ish joyidan ikkinchisiga surilish uzunligi:

$$l_{\Pi} = R_{CT}^{MAX} - R_{CT}^{МИН} = 15,6 - 10,1 = 5,5 \text{ м}, \quad (10)$$

yoki rukoyatning ishlash uzunligi bilan chegaralanadi ($l_{x.p.}$)

$$l_{\Pi} = (0,6 \div 0,8)l_{x.p.} = (0,6 \div 0,8) \cdot 6 = 3,6 \div 4,8 \text{ м}.$$

Qabul qilamiz $l_{\Pi} = 4$ m.

$i=2$ – maydalash qurilmasining ekskavator orqasidan siljishini hisobga oluvchi vaqt:

$$T_{n2} = T_{\Pi,Д}, \text{ МИН}, \quad (11)$$

$$W_2 = l_{\Pi} \cdot H \cdot B, \text{ м}^3, \quad (12)$$

gde $T_{\Pi,Д}$ – maydalash qurilmasining yuklanishdan oldin yangi ish joyiga siljish vaqti: ($T_{\Pi,Д} = 1 \div 2$ min);

W_2 – maydalash qurilmasining bir joyida bajargan ishi hajmi.

$i=3$ – qayta yuklagichning bir ish joyidan ikkinchisiga siljishini hisobga oluvchi vaqt:

$$T_{n3} = T_{\Pi,М.П}, \text{ мин}. \quad (13)$$

$$W_3 = l_{\Pi} \cdot H \cdot B, \quad (14)$$

gde $T_{\Pi,М.П}$ – qayta yuklagichning bir marta siljishiga sarflanadigan vaqti ($T_{\Pi,М.П} = 3 \div 4$ min);

W_3 – qayta yuklagichning bir joyida bajargan ishi hajmi.

$i=4$ – boshqa ish zaboyiga o'tish;

Ekskavator ish zaboyining optimal kengligi burilish burchagiga bog'liq holda 2-rasmda ko'rsatilgan sxema bo'yicha quyidagicha hisoblanadi [83; s. 129-138]:

$$B = 2 \cdot (2 \cdot R \cdot \sin \frac{\beta}{2} - a), \text{ м}, \quad (15)$$

bu yerda R – ekskavatorning hisoblangan o'rtacha qamrash radiusi, m;
 β – ekskavatorning yuk to'kishdagi o'rtacha hisoblangan burilish burchagi, rad.

Ekskavator ish doirasining kengligi:

$$a = a_0 + a_T, \text{ bunda } a_0 = H \cdot ctg\alpha \text{ i } a_T = \frac{b_T}{2} + \Delta a_T, \text{ m,} \quad (16)$$

bu yerda a_0 – zaboy eksentrisiteti;

a_T – zaboy chegarasidan maydalash qurilmasi bunkerigacha bo'lgan masofa, m;

b_T – bunker eni, m;

Δa_T – zahira kenglik (0,5÷1,0 m);

α – pog'ona qiyaligi ($\alpha=50\div75^\circ$).

Ekskavatorning hisoblangan o'rtacha qamrash radiusi quyidagicha hisoblanadi [83; s. 129-138].

$$R = R_B - 0,5 \cdot l_{\Pi}, \text{ m.} \quad (17)$$

Ekskavatorning bir ish sikli (t_{Π}) vaqtini aniqlaymiz. Bir ish sikli davomiyligi (t_{Π}) kon jinsini qamrash (t_{Ψ}), kovshni bo'shatish uchun burilish ($t_{\Pi.P}$), kovshni bo'shatish (t_P) va zaboyga qamrash uchun burilish ($t_{\Pi.\Psi}$) vaqtlari yig'indisi orqali aniqlanadi:

$$t_{\Pi} = t_{\Psi} + t_{\Pi.P} + t_P + t_{\Pi.\Psi}, \text{ c.} \quad (18)$$

Qamrash vaqti kovshning hajmi (V_K) ga, botish chuqurligi (t_c) ga, qamrash uzunligiga, qamrash tezligi $\vartheta_{\text{ПОД}}$ ga va zaboy sharoitlariga hamda mashinist malakasiga bog'liqdir:

$$t_{\Psi} = \frac{V_K}{B_K t_c \vartheta_{\text{ПОД}} K_3}, \text{ c,} \quad (19)$$

bu yerda K_3 – zaboyni qazib olish qiyinligi koeffitsiyenti ($K_3=0,55\div1,0$) bo'lib, uning taxminiy qiymati massiv jinslari kategoriyasiga bog'liq va [85; s. 189] ga asosan qabul qilinadi.

$\vartheta_{\text{ПОД}}$ – kovshning qamrash yoki massivdagi ko'tarilishi tezligi bo'dib uning qiymati ekskavator ko'tarish mexanizmining konstruktiv imkoniyatlariga bog'liq.

Kovshni bo'shatish uchun burilish vaqti aylanuvchi qismlarning tezlanishi va sekinlashishini hisobga olgan holda ekskavator burilish mexanizmining konstruktiv imkoniyatlariga bog'liq:

$$t_{\Pi.P} = \frac{\beta}{\omega_{\Pi\Pi}}, \text{ c,} \quad (20)$$

где β – platformaning yukni bshatishga burilish burchagi, rad.;

$\omega_{\Pi\Pi}$ – platformaning burchak tezligi, rad/s.

Kovshni bo'shatish va zaboyga qamrash uchun burilish vaqtlari mos ravishda:
 $t_P \approx 2 - 3 \text{ c, } t_{\Pi.\Psi} \approx t_{\Pi.P}$

2-AMALIY MASHG'ULOT

Angren ko'mir koni misolida ekskavator ish zaboyining optimal kengligini matematik modellashtirish

Angren ko'mir konida qoplama jinslarni qazib olishda ishlatilayotgan "ekskavator-maydalash qurilmasi-qayta yuklagich-konveyer" kompleksi uchun optimal zaboy kengligini hisoblaymiz.

Hisoblash uchun boshlang'ich ma'lumotlar: Zaboyning loyiha bo'yicha o'rnatilgan o'lchamlari va texnologik ko'rsatgichlarini 1-jadvalda, ekskavator, maydalash qurilmasi va qayta yuklagichning tavsiflarini 2-4 -jadvallarda keltiramiz.

1-jadval

Zaboyning loyiha bo'yicha o'rnatilgan o'lchamlari

| Texnologik ko'rsatgichlarning nomi | Belgilanishi | O'lchov birligi | Soni |
|---|---------------|------------------|----------|
| Pog'ona balandligi | H_y | m | 15 |
| Pog'onaning yon qiyaligi | α | grad. | 70 |
| Ekskavatorning o'tish kengligi | B_3 | m | 22,5-25 |
| Kovshning to'lalilik koeffitsiyenti | k_H | | 0,9-1,1 |
| Ish vaqtidan foydalanish koeffitsiyenti | K_B | | 0,6-0,7 |
| Pog'ona pastki chetining maydalash qurilmasi harakatlanadigan transport yo'lagigacha bo'lgan masofasi | s_1 | m | 1,2-4,05 |
| Qayta yuklagichning o'rnatilish kengligi | $B_{y.m.\Pi}$ | m | 20-90 |
| Konveyer o'qidan pastki pog'ona yuqori chetigacha bo'lgan masofa | $B_{k.y.}$ | m | 10 |
| Ish maydonining kengligi | $B_{p.\Pi}$ | m | 60-130 |
| Ekskavatorning yukni to'kish uchun burilish burchagi | β | gradus | 60-180 |
| Kon jinslari turlari: sementlashgan loyli peschanik va galechniklar | | | |
| Zichligi | γ | t/m ³ | 1,9-2,3 |
| Ko'pchish koeffitsiyenti | k_p | | 1,1-1,4 |

2-jadval

EKG-15 ekskavatorining texnik tavsifi

| Asosiy ishchi ko'rsatgichlari | Belgilanishi | O'lchov birligi | Soni |
|--|----------------|-----------------|------|
| Kovsh sig'imi | V_k | m ³ | 16,5 |
| Ekskavatorning o'zi turgan tekislikdagi maksimal qamrash radiusi | R_{CT}^{max} | m | 15,6 |
| Ekskavatorning o'zi turgan tekislikdagi minimal qamrash radiusi | R_{CT}^{min} | m | 10,1 |

| | | | |
|---|--------------------------------|-------|----------|
| Eng katta qamrash radiusi | $R_{\text{Ч}}^{\text{макс}}$ | m | 22,6 |
| Eng katta qamrash balandligi | $H_{\text{Ч}}^{\text{макс}}$ | m | 15,8 |
| Eng katta yuk tushirish balandligi | $H_{\text{В.В}}^{\text{макс}}$ | m | 9,9 |
| Naibolshiy radius ν gruzki | $R_{\text{В}}^{\text{макс}}$ | m | 19,5 |
| Ish sikli davomiyligi (90^0 da) | $t_{\text{ц}}$ | s/min | 28/0,467 |
| Bosh blok bo'yicha ekskavator balandligi | $H_{\text{Г.блока}}$ | m | 18,7 |
| Ikki oyoqli tayanchi bo'yicha ekskavator balandligi | $H_{\text{Д.стойка}}$ | m | 15,0 |
| Harakatlanish tezligi | $V_{\text{пер}}$ | km/ch | 0,72 |

3-jadval

Mobil maydalash qurilmasining texnik tavsifi

| Oсновные рабочие параметры | Belgilanishi | O'lchov birligi | Soni |
|---|------------------|-----------------|-------|
| Hisobli unumdorligi | $P_{\text{Д}}$ | t/s | 4000 |
| Maydalanadigan jinslarning mustahkamligi | f | | 8-12 |
| Bunkerining hajmi | $V_{\text{Б}}$ | m^3 | 50 |
| Bunkerining balandligi | $H_{\text{Б}}$ | m | 8 |
| Yuk tushiruvchi strelaning uzunligi | $L_{\text{Р.С}}$ | m | 18-25 |
| maydalash qurilmasining umumiy uzunligi | $L_{\text{Д}}$ | m | 44 |
| maydalash qurilmasining umumiy eni | $B_{\text{Д}}$ | m | 12,8 |
| Yuklanayotgan jinslarning yirikligi: 1100 mm (umumiy massadan 5%), 300 mm dan oshiq (umumiy massadan 20%), 300 mm gacha (umumiy massadan 75%) | | | |
| Jinslarning maydalangandan keyingi o'lchami | | mm | 0-300 |

4-jadval

Qayta yuklagichning texnik tavsifi

| Oсновные рабочие параметры | Belgilanishi | O'lchov birligi | Soni |
|---|-----------------------------|-----------------|--------------------|
| Hisobli unumdorligi | $P_{\text{Р}}$ | t/s | 4000 |
| Yuklanayotgan jinslarning yirikligi | d | mm | 0-300 |
| Qazib olinayotgan pog'ona balandligi | H_{y} | m | 15 |
| Qabul qiluvchi va yuk to'kuvchi strelalarning umumiy uzunligi | $L_{\text{П}}$ | m | 72-82 |
| Qabul qiluvchi strelaning qiyaligi | | grad. | ne boleye ± 16 |
| Yuk tushiruvchi strelaning qiyaligi | | grad. | ne boleye ± 16 |
| Harakatlanish tezligi (maksimal) | $V_{\text{пер}}$ | m/min | 8-10 |
| Qaytib burilishning minimal radiusi | $R_{\text{Р}}^{\text{мин}}$ | m | 10-12 |

| | | | |
|--|-------|--|------|
| Harakatlanishning maksimal qiyaligi | i_p | | 1:10 |
| Ish holatidagi ruxsat etilgan qiyaligi | i_r | | 1:20 |

Hisoblashlar va natijalar: 1-jadvalga asosan qabul qilamiz $k_H = 1,0$; $k_P = 1,2$.

(6) formuladan aniqlaymiz:

$$\theta_j = \sum \theta_j = \frac{T_j}{T_{oj}} = 0,043 + 0,014 + 0,042 + 0,014 + 0,035 = 0,148;$$

$$j = 1: \theta_1 = \frac{T_1}{T_{o1}} = \frac{31}{720} = 0,043;$$

$$j = 2: \theta_2 = \frac{T_2}{T_{o2}} = \frac{10}{720} = 0,014;$$

$$j = 3: \theta_3 = \frac{T_3}{T_{o3}} = \frac{30}{720} = 0,042;$$

$$j = 4: \theta_3 = \frac{T_4}{T_{o4}} = \frac{10}{720} = 0,014;$$

$$j = 5: \theta_3 = \frac{T_5}{T_{o5}} = \frac{25}{720} = 0,035.$$

$i = 1$ - ekskavatorning bir ish joyidan ikkinchi ish joyiga siljishini hisobga oluvchi vaqt:

(8) formulaga asosan

$$T_{n1} = T_{\Pi.Э} = \frac{l_{\Pi}}{v_3} = \frac{4}{12} = 0,34. \text{ Qabul qilinadi } \approx 1 \text{ min.}$$

$i = 2$ – maydalash qurilmasining ekskavator orqasidan siljishini hisobga oluvchi vaqt:

(11) formulaga asosan $T_{n2} = T_{\Pi.Д} = 4/3 \approx 2 \text{ мин.}$

$i =$

3 – qayta yuklagichning bir ish joyidan ikkinchisiga siljishini hisobga oluvchi vaqt:

(13) formulaga asosan $T_{n3} = T_{\Pi.М.П} = \frac{4}{3} \approx 2 \text{ min.}$

Umumiy holda: $T_{n1} + T_{n2} + T_{n3} = 1 + 2 + 2 = 5 \text{ мин.}$

Har uchchala holat uchun bir xil ish xajmi W_i bajariladi. Qabul qilamiz $W_1 = W_2 = W_3$.

(16) formulaga asosan $a = 5,4 + 7,4 = 12,8 \text{ м, } a_0 = 15 \cdot ctg70 = 5,4 \text{ м}$ va $a_T = \frac{12,8}{2} + 1 = 7,4 \text{ м.}$

(17) formulaga asosan: $R = 19,5 - 0,5 \cdot 5,5 = 16,75 \text{ м.}$

Ekskavatorning yukni bo'shatish uchun turli burchaklarga burilishida β ning turli qiymatlari uchun mos keluvchi unumdorlik Q_β ning qiymatlarini topamiz, va $Q_\beta = f(\beta_z)$ funksiya grafigini quramiz (2.6-rasm). Ushbu grafikdan ekskavatorning optimal β_{opt} burilish burchagini va boshqa texnologik ko'rsatgichlarni topish mumkin, jumladan ekskavatorning maksimal unumdorligi Q_β^{max} ni ham aniqlaymiz. Hisoblash natijalari 2.6-jadvalda keltirilgan.

Agar grafikning har bir nuqtasi uchun zaboy kengligini optimallashtirsak ekspluatasion unumdorlik maksimal qiymatini topamiz. Zaboyning optimal kengligini hisoblash va bunga mos bo'dgan funksional bog'liqlik grafigini qurish Microsoft Excel

dasturi yordamida bajariladi (2.6-rasm).

2.6-jadval

$Q_3 = f(B_z)$ funksional bog'liqlik grafigini qurish bo'yicha hisoblashlar natijalari

| Q_3 , m ³ /ch | Q_T , m ³ /s | K_v | $\sum \theta_j$ | $\sum \theta_i$ | B, m | β , rad. | β , grad. | K_e | T_s | K_{tr} |
|-------------------------------|------------------------------|-------|-----------------|-----------------|------|-------------------|--------------------|-------|-------|----------|
| 905,2 | 0,654 | 0,38 | 0,15 | 1,21 | 2,7 | 0,87 | 50 | 0,83 | 21,04 | 0,9 |
| 1218,4 | 0,636 | 0,53 | 0,15 | 0,60 | 5,3 | 0,96 | 55 | 0,83 | 21,62 | 0,9 |
| 1360,8 | 0,619 | 0,61 | 0,15 | 0,39 | 7,9 | 1,05 | 60 | 0,83 | 22,20 | 0,9 |
| 1431,0 | 0,604 | 0,66 | 0,15 | 0,29 | 10,4 | 1,13 | 65 | 0,83 | 22,78 | 0,9 |
| 1464,6 | 0,589 | 0,69 | 0,15 | 0,23 | 12,8 | 1,22 | 70 | 0,83 | 23,36 | 0,9 |
| 1477,6 | 0,574 | 0,71 | 0,15 | 0,19 | 15,2 | 1,31 | 75 | 0,83 | 23,94 | 0,9 |
| 1478,1 | 0,561 | 0,73 | 0,15 | 0,16 | 17,4 | 1,40 | 80 | 0,83 | 24,53 | 0,9 |
| 1470,8 | 0,548 | 0,75 | 0,15 | 0,14 | 19,6 | 1,48 | 85 | 0,83 | 25,11 | 0,9 |
| 1458,5 | 0,535 | 0,76 | 0,15 | 0,12 | 21,8 | 1,57 | 90 | 0,83 | 25,69 | 0,9 |
| 1442,9 | 0,523 | 0,77 | 0,15 | 0,11 | 23,8 | 1,66 | 95 | 0,83 | 26,27 | 0,9 |
| 1425,0 | 0,512 | 0,77 | 0,15 | 0,10 | 25,7 | 1,74 | 100 | 0,83 | 26,85 | 0,9 |
| 1405,8 | 0,501 | 0,78 | 0,15 | 0,09 | 27,5 | 1,83 | 105 | 0,83 | 27,43 | 0,9 |
| 1385,7 | 0,491 | 0,78 | 0,15 | 0,08 | 29,3 | 1,92 | 110 | 0,83 | 28,01 | 0,9 |
| 1365,1 | 0,481 | 0,79 | 0,15 | 0,08 | 30,9 | 2,01 | 115 | 0,83 | 28,60 | 0,9 |
| 1344,3 | 0,471 | 0,79 | 0,15 | 0,07 | 32,4 | 2,09 | 120 | 0,83 | 29,18 | 0,9 |
| 1323,5 | 0,462 | 0,80 | 0,15 | 0,07 | 33,8 | 2,18 | 125 | 0,83 | 29,76 | 0,9 |
| 1302,7 | 0,453 | 0,80 | 0,15 | 0,06 | 35,1 | 2,27 | 130 | 0,83 | 30,34 | 0,9 |
| 1282,2 | 0,445 | 0,80 | 0,15 | 0,06 | 36,3 | 2,35 | 135 | 0,83 | 30,92 | 0,9 |
| 1261,9 | 0,436 | 0,80 | 0,15 | 0,06 | 37,3 | 2,44 | 140 | 0,83 | 31,50 | 0,9 |
| 1241,9 | 0,429 | 0,80 | 0,15 | 0,06 | 38,3 | 2,53 | 145 | 0,83 | 32,08 | 0,9 |
| 1222,3 | 0,421 | 0,81 | 0,15 | 0,05 | 39,1 | 2,62 | 150 | 0,83 | 32,67 | 0,9 |

O'tkazilgan tadqiqot natijasida Angren ko'mir koni sharoiti uchun zaboy texnologik ko'rsatgichlari orasidagi bog'liqlikni ko'rsatuvchi $Q_3 = f(B_z)$ grafigi qurilgan (3-rasm). Ekskavatorning maksimal unumdorligi 1478,1 m³/soat bo'lganda ish zaboyining kengligi 17,4 m ni tashkil etishi aniqlangan.



3-rasm. $Q_z = f(B_z)$ bog'liqlik grafigi

3-AMALIY MASHG'ULOT

Mobil maydalash -qayta yuklash-konveyer majmualaridan foydalangan holda tog' jinslarini qazib olishning davriy-uzluksiz texnologiya sxemalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashni matematik modellashtirish

Ishdan maqsad Angren ko'mir koni sharoitida qoplama jinslarni lentali konveyerlar va samosvallar yordamida ichki ag'darmaga tashishda energiya sarfini hisoblashdir.

Kalit so'zlar: *davriy-uzluksiz texnologiyasi, mobil komplekslar, konveyer, unumdorlik, samaradorlik.*

Ochiq usulda qazib olishda bir jinsli va aralash quvvatli karbonatli jinslar konlari 30% gacha kuchsiz navlari bo'lgan ko'chma agregatlar, ko'chma maydalash agregatlari, ko'chma bosqichlararo yuklagichlar va ko'chma konveyerli komplekslarda qo'llaniladi [1,2].

"Ko'chma maydalash va qayta yuklash-konveyer majmualari" ning texnologik sxemalari (MCRCC) e'gimli konveyerlardan foydalanish tufayli avtomobil transporti va har qanday qayta yuklash punktlarini hisobga olmaganda, haddan tashqari yuk yoki kon gorizontlarini samarali tozalashni ta'minlaydi.

Skameykalarni uzunlamasına siljish bilan ishlov berishda MCRCC dan foydalanish eng maqbuldir. Yuzli konveyerning bir pozitsiyasidan tor (bitta ekskavator drifti) yoki keng (ikki yoki uchta ekskavator driftigacha) chiziqlardagi dastgohlarni ishlab chiqish mumkin [1,2,3].

Texnologik sxemalarning mavjud variantlarini taqqoslash shuni ko'rsatdiki, tizimning yuqori mahsuldorligini va bo'sh smenalarga kam vaqt sarflanishini


ta'minlaydigan MCRCC bilan CFTning printsipial jihatdan yangi texnologik sxemasini ishlab chiqish zarur.

Kompleksning bo'sh harakatlanish vaqtini qisqartirish va ofsetlar sonini kamaytirish uchun biz MCRCC bilan tsiklik oqim texnologiyasidan (CFT) foydalangan holda yuk ko'taruvchi dastgohlarni ishlab chiqishning yangi texnologik sxemasini ishlab chiqdik (1-rasm) [4].

Ushbu texnologik sxema bo'yicha MCRCC tizimi ikki ufqda ishlaydi. Ekskavator-mobil maydalagich - bosqichlararo qayta yuklash moslamasi birinchi navbatda pastki bosqichda, so'ngra yuqori pog'onada ikki turda ishlaydi. Bunday holda, yuz konveyer yuqori chetiga o'rnatiladi. Shundan so'ng, yuz konveyeri ekskavatorning old tomoni bo'ylab harakatlanadi.

MCRCC dan foydalangan holda tsiklik-oqimli texnologiya sxemalarining iqtisodiy samaradorligini hisoblash metodologiyaga muvofiq amalga oshiriladi [5].

Tog'-kon ishlarining samarali texnologiyalarini tanlash uchun energiya samaradorligi va operatsion xarajatlar kabi asosiy omillarni hisobga olish kerak. Ko'chma maydalagichlardan foydalanish ishlatiladigan og'ir avtomashinalar sonini kamaytirish, foydali qazilmalar konlarini o'zlashtirish jarayonida chiqariladigan zararli gazlar miqdorini kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish uchun yanada qulay shart-sharoitlarni ta'minlash imkonini beradi.



1-rasm. Zaboy konveyerining frontal joylashuvi va ikki gorizontda ketma-ket qazib olish ishlari bilan ko'chma qayta yuklash uskunalari mavjud bo'lganda MMQYKK ishlatishning texnologik sxemasi.

Energiyaga bo'lgan talabni aniqlash uchun qazib olish jarayoni ma'lum miqdordagi "n" alohida jarayonlarga bo'linadi:

$$E = \sum_{i=1}^n M_i (L_i k_{Li} k_{MLi} q_{Li} + H_i k_{MH_i} q_{Hi} + Z_e + Z_c + Z_r + Z_d) \text{ kWh}, \quad (1)$$

Bu erda E - qazib olish jarayonining energiya talabi, kVt·s,

M_i - har bir alohida jarayonda tashiladigan jinslarning umumiy massasi i, t;

L_i - har bir alohida jarayonning yakuniy nuqtasi va karerda uch o'lchovli fazoda barcha tashilgan jinslarning massa markazi orasidagi minimal gorizontol masofa, km

k_{Li} - tashish masofasining ortish koeffitsienti, u har bir alohida tashish texnologiyasining xususiyatlarini hisobga olgan holda tog' jinslarini haqiqiy tashish uzunligi L_i va minimal gorizontol masofa o'rtasidagi nisbat bilan ifodalanadi;

k_{MLi} - butun tashilgan massaning tashilgan jinsning sof og'irligiga nisbati sifatida aniqlangan gorizontol tashilgan jinsning o'sish koeffitsienti. Ushbu koeffitsient haqiqiy yuk ko'tarish qobiliyati M_{PLi} va karerga boradigan va qaytayotgan yo'lda transport vositalarining ish massalari yig'indisi $2M_{Li}$ asosida quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$k_{MLi} = (M_{PLi} + 2M_{Li}) / M_{PLi} . \quad (2)$$

q_{Li} - transport yo'nalishidagi tegishli transport vositasining harakatiga qarshilik va haydovchining mexanik samaradorligini hisobga olgan holda hisoblangan masofa birligi va tashilgan tosh massasi C_{Ri} uchun mexanik energiyaning solishtirma iste'moli:

$$q_{Li} = C_{Ri} * 9,81 / (3,6 * \eta_M) , \text{kW} / (\text{t} \cdot \text{km}); \quad (3)$$

H_i - umumiy tashilgan jins massasining muayyan boshlang'ich, oraliq yoki yakuniy jarayondagi boshlang'ich nuqtadan yakuniy nuqtagacha bo'lgan o'rtacha balandligi, km;

k_{MHi} - tog' jinslarini ko'tarish paytida tashilgan tosh massasining ko'payishi koeffitsienti, butun ko'tarilgan massaning M_{PLi} aniq jins massasiga M_{Li} nisbati sifatida aniqlanadi. Ushbu koeffitsient uskunaning haqiqiy yuk ko'tarish qobiliyati va ish og'irligini hisobga olgan holda hisoblanadi:

$$k_{MHi} = (M_{PLi} + M_{Li}) / M_{PLi} ; \quad (4)$$

q_{Hi} - yuk ko'tarish balandligi birligi va ko'tarilgan tog' jinslari massasi birligiga tashiladigan asbob-uskunalar massasi bilan birga mexanik energiyaning solishtirma sarfi. Bu tashish usuliga bog'liq emas va haydovchining mexanik samaradorligini hisobga olgan holda hisoblab chiqiladi, taxminan 95% ga teng:

$$q_{Hi} = \frac{9,8}{3,6 * 0,95} = 2,87 , \text{kWh/tkm}; \quad (5)$$

Z_e, Z_c, Z_r, Z_d - mos ravishda, qazish, maydalash, qayta yuklash va tushirishda tog' jinslari massasiga mexanik energiyaning o'rtacha solishtirma sarfi, kVt/t. Har xil turdagi jinslarni qazib olish va maydalashda massa ortish koeffitsientlari va solishtirma energiya sarfi ilovalarda keltirilgan [5, 6].

Tashish masofasini oshirish koeffitsienti^{k_{Li}}, lift balandligining^{H_i} minimal gorizontal tashish masofasiga^{L_i} nisbati va maksimal ruxsat etilgan liftga bog'liq. Tashish masofasi va nasos yo'li birligi va tashilgan massa birligi uchun $s_{\max .i}$ solishtirma energiya sarfini hisoblash uchun koeffitsientlarning empirik qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan. [5].

Hisob-kitoblar transport vositalarini manevr qilish va aylantirish zarurati tufayli transport marshrutining qo'shimcha o'sishini hisobga oladi.

To'g'ridan-to'g'ri yo'lda boshlang'ich nuqtadan oxirigacha bo'lgan maksimal ruxsat etilgan nishab alohida jarayonda balandlikdan oshsa, toshni tashish masofasi ortadi:

$$k_{Li} = \frac{H_i}{s_{\max} L_i} * (1 + r_i). \quad (6)$$

Tasmali konveyerlar va samosvallar yordamida Angren uchastkasi sharoitida osilgan jinslarni ichki chiqindixonaga tashishda energiya sarfini hisoblaylik.

2. rasmda Angren uchastkasidagi CFT liniyasida yuk ko'taruvchi konveyerlarning sxemasi ko'rsatilgan. Ekskavator va konveyer liniyalarining quvvatlari metodologiyaga muvofiq aniqlangan [7,11,12].


MCRCC va konveyer transportining energiya sarfini hisoblash natijalari 2-jadvalda keltirilgan. Hisob-kitoblarda konveyerlarning ikkita texnologik liniyasi ko'rib chiqiladi: tasmali haddan tashqari yuklovchi + konveyerlar №1 + №2 + №3 + №4 + №5 + spoylerlar [12].

JADVAL 1. Tashish masofasi va yuk tashish yo'li birligiga va tashilgan massa birligiga solishtirma energiya sarfini hisoblash uchun koeffitsientlarning empirik qiymatlari

| Indicators | Belt conveyor | | Haulage track of dump trucks | |
|--|---------------|--------------|------------------------------|-------------|
| | Movable | Stationary | Temporary | Permanent |
| Increase in additional haulage / transport distance, r | 0.1 – 0.7 | | 0.3 – 1.0 | |
| The maximum angle of inclination of the haulage path, S _{max} | 1:4 | | 1:10 | |
| Specific energy consumption for horizontal transport, q _A kW / (t · km) | 0.06 -0.09 | 0.03 – 0.06 | 0.3 – 0.6 | 0.015 – 0.3 |
| Rolling resistance coefficient, C _{R.i} | 0.02 -0.03 | 0.01 - 0.002 | 0.1- 0.2 | 0.05 – 0.1 |

Shunday qilib, olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, MCRCC yordamida skameykalarni qazib olishda ortiqcha yuk ko'tariladi. yuklash uchun maxsus energiya sarfi. maydalash va ichki axlatxonaga tashish 1,25 kVt·soat. Yuklash uchun jami energiya sarfi. 2500 tonna yukni maydalash va tashish 3,134 kVt·soat.

Turli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini solishtirish. avtomobil transportini hisoblash ushbu metodologiya bo'yicha amalga oshirildi. Hisoblash uchun yuk ko'tarish quvvati 130 t, o'z og'irligi 108 t bo'lgan BELAZ-75131 samosval tanlangan. Hisoblash natijalari 3-jadvalda keltirilgan.



2-RASM. Angren uchastkasidagi TSS liniyasida yuk ko'taruvchi konveyerlarni joylashtirish sxemasi [8,11]: 1- Ekskavator; 2- Mobil maydalagich; 3- Konveyer No1 (pastki teshik); 4- Qayta yuklovchi; 5- №2 konveyer (transport); 6- №3 konveyer (magistral); 7- 4-sonli konveyer (asosiy); 8- 5-sonli konveyer (amal); 9- Spreader-tel

2-JADVAL. Angren konida tog'-kon stendlarida MCRCC va konveyer transportining energiya sarfini hisoblash natijalari


| Mashinalar va uskunalar | M_i, t | L_i, km | $\beta, grad.$ | H_i, m | M_{Li}, t | C_{Ri} | $q_{Li}, kW h/t km$ | $q_{Hi}, kW h/t km$ | $Z_i, kW h/t$ | $E, kW h/t km$ | $\sum E, kW h$ |
|---------------------------|----------|-----------|----------------|----------|-------------|----------|---------------------|---------------------|---------------|----------------|----------------|
| Ekskovator | 2500 | | | | | | | | 0.3 | | 750 |
| Mobil maydalash qurilmasi | 2500 | | | | | | | | 0.3 | | 750 |
| Qayta yuklagich | 2500 | 0.09 | | | | | | | 0.15 | | 375 |
| №1 Zaboy konveyeri | 2500 | 0.451 | 1 | 8 | 59.8 | 0.02 | 0.06 | 3.03 | | 0.053 | 132 |
| №2 konveyeri | 2500 | 0.476 | 1 | 9 | 63.2 | 0.02 | 0.06 | 3.03 | | 0.057 | 142 |
| №3 konveyeri | 2500 | 0.29 | 1 | 5 | 38.5 | 0.02 | 0.06 | 3.03 | | 0.035 | 88 |
| №4 konveyeri | 2500 | 0.718 | 0.5 | 6 | 95.3 | 0.02 | 0.06 | 3.03 | | 0.066 | 165 |
| №5 ag'darma konveyeri | 2500 | 0.98 | 0.5 | 9 | 130.1 | 0.02 | 0.06 | 3.03 | | 0.093 | 232 |
| Ag'darma hosil qilgich | 2500 | | | | | | | | 0.2 | | 500 |
| Jami: | 2500 | 3.005 | | | | | | | 0.95 | 0.3 | 3134 |

3-JADVAL. Angren konida ustki dastgohlarni qazib olishda ekskavator va yuk mashinalari majmuasining energiya sarfini hisoblash natijalari

| Mashinalar va uskunalar | M_i , t | L_i , km | β , grad. | H_i , m | M_{Li} , t | C_{Ri} | q_{Li} , kW h/t km | q_{Hi} , kW h/t km | Z_i , kW h/t | E , kW h/t km | ΣE , kW h |
|--------------------------------|-------------|--------------|-----------------|-----------|--------------|-------------|----------------------|----------------------|----------------|-----------------|-------------------|
| Ekskavator | 2500 | | | | | | | | 0.3 | | 750 |
| № 1 yo'l uchastkasi | 2500 | 0.451 | 1 | 8 | 238 | 0.15 | 0.43 | 2.87 | | 0.28 | 697.02 |
| № 2 yo'l uchastkasi | 2500 | 0.476 | 1 | 9 | 238 | 0.15 | 0.43 | 2.87 | | 0.29 | 735.66 |
| № 3 yo'l uchastkasi | 2500 | 0.29 | 1 | 5 | 238 | 0.05 | 0.14 | 2.87 | | 0.07 | 175.88 |
| № 4 yo'l uchastkasi | 2500 | 0.718 | 0.5 | 6 | 238 | 0.05 | 0.14 | 2.87 | | 0.15 | 386.28 |
| № 5 yo'l uchastkasi (ag'darma) | 2500 | 0.98 | 0.5 | 9 | 238 | 0.15 | 0.43 | 2.87 | | 0.58 | 1447.47 |
| Total: | 2500 | 3.005 | 1 | 37 | 238 | 0.02 | | | | 1.58 | 3942.33 |

